

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TURIZM FAKULTETI

«TASVIRIY SAN'AT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI» KAFEDRASI

**Ko'kaldosh tarixiy obidasini moybo'yoqda bajarish texnologiyasi  
mavzusidagi**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bajardi: Tasviriy san'at va muhandislik

grafikasi ta'lim yonalishi bitiruvchisi

3-1TS -15 guruh talabasi Karimova

Shaxnoza

---

ILMIY RAXBAR:

dots. S.S. Abdullayev

---

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

\_\_\_\_\_ sonli bayonnomasi " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 2019 yil

**Buxoro- 2019 yil.**

## **Mavzu: “Ko’kaldosh” tarixiy obidasini moybo’yoqda bajarish texnologiyasi**

<b>Kirish</b> .....	5 bet
<b>I. Bob. “Ko’kaldosh” tarixiy obidasining tarixi, O’zbekistonda tasviriy san’at va kompozitsiya</b>	
1.1 Ko’kaldosh tarixiy obidasi haqida .....	8 bet
1.2 Kompozitsiya tarixi va rivojlanishiga doir qisqacha izoh.....	11 bet
1.3 Kompozitsiyaning asosiy qonun – qoidalari.....	16 bet
1.4 O’zbekistonda tasviriy san’at va kompozitsiya maktablarining rivojlanish tarixi .....	22 bet
<b>II. Bob. Asarni moy bo’yoqda bajarish texnologiyasi</b>	
2.1 Asarni moy bo’yoqda bajarish texnologiyasi .....	33 bet
2.2 Kartinada asosiy rang munosabatlarni idroq qilish va tasvirlash.....	40 bet
2.3 O’zbekiston mashhur rassomlari.....	46 bet
<b>III. Atamalarning izohli lugati</b> .....	55 bet
<b>IV. Xulosa</b> .....	61 bet
<b>V. Adabiyotlar ro’yxati</b> .....	63 bet
<b>VI. Ilovalar</b> .....	65-82 bet

## **Kirish**

### **Mavzuning dolzarbligi**

O'zbekiston hududida minglab memoriy yodgorliklar mavjud ular bizga qadimgi sivilizatsiyadan darak beradi. Bularga Buxoro va Surxandaryo, Zarafshon va Farg'ona vodiysi hamda Xorazm misol bo'la oladi.

Ular orasiga "Bibixonim", "Registon" majmuasi "Shoxizinda", "Go'ri Amir" maqbarasi, "Oq-saroy", "Minorai Kalon", "Ark", "Chor Minor", "Chor Bakr", "Ko'kaldosh" va shunga o'xshash memoriy obidalar o'tmish bobokalonlarimiz bizlarga qoldirilgan merosdir. O'tmishda savdo madaniyat jihatidan u Turon Turkistonning, Bulh, Samarqand Termiziy Nasaf, Shosh va Xorazm singari Mashhur shaharlar orasiga munosib o'rin egallagan. Movorounahr yirik savdo hunarmandchilik va ma'muriy markazi bo'lgan. O'rta yaqin sharq mamlakatlarini Hindiston va Xitoy bilan bog'lovchi qadimiy savdo yo'li aynan shu shahar orqali o'tgan va yo'l mashhur sotix larning daforli yurishlariga har yo'li sifatiga xizmat qilgan. Ko'pincha goh Garbdan, goh Sharqdan yoki shimol Janubdan Buxoroga istelochilar qo'shini bostirib kirib uni ayovsiz taladi.

Biroq shunga qaramay Buxoro ilk o'rta asrlardayoq qadimiy Turonning madaniy ma'rifiy markaziga aylandi. Bu yerda diniy va dunyoviy fanlar rivoj topdi.

Buxoroning X-XX asrlarga oid aksariyat tarixiy obidalari bizning davrimizgacha saqlanib qolgan.

Mumtoz uslubdagi qat'iy qadimiy inshootlar ko'p rangli mozaika va manaikalardan musaffo bo'yoqlar sirli gumbazlar va nafis ishlangan peshtoqlar va aniq kompazitsion yechimdagi me'moriy majmualar ularning brogan O'rta osiyo me'morchiligining o'ziga xos jixatidir.

### **Tadqiqot maqsadi va vazifasi:**

Ko'kaldosh madrasasi - Buxorodagi me'moriy yodgorlik. Buxoro xonining vaziri Qulbobo Ko'kaldosh qurdirgan (1568—1569). U ikki qavatli imorat bo'lib, Labi hovuz ansamblining shimolida joylashgan.

Ikki qanotli bosh tarzi ansambl maydoniga qaratilgan. Peshtoqini bezatib turgan koshinlar saqlanib qolmagan. Madrasa peshtoqidagi darvoza girix, va islomiy naqshlar bilan bezatilgan. Xotamqori uslubida terib mahkamlangan pilakchalardan yasalgan darvoza tabaqasi yaxlit taxtadan tayyorlangandek ko'rinadi. Madrasa hovlisiga 5 gumbazli miyonsaroy orqali kiriladi. Miyonsaroyning ichki gumbazlari va bag'allari, shipi o'ziga xos turli shakldagi murakkab to'rsimon yulduzsimon, qolibqori va iroqi uslubida pishiq g'ishtdan ganch qorishmasida terilgan. Madrasa hovlisi uzun (42x37 m), o'rtaga yangi imorat 1929 yil qurilgan. Hovli tomondagi 2 qavatli ravoqlar qatorini yuzma-yuz qilib solingan peshtoqli baland ayvonlar ajratib turadi. Har bir ravoqdan alohida hujraga kiriladi. Hovli atrofi 2 qavatli 160 hujra bilan o'ralgan. Yon tomonidagi hujralarning pastki qanatiga (tashqi devorlarida) xonani yoritish uchun panjaralar o'rnatilgan. Yuqori qanatiga esa qator qilib chuqur ravoqlar ishlangan. Ravoqlar tepasini va ba'zi darcha panjaralarini bezatishda koshin ancha tejab ishlatilgan. Bosh tarzidagi peshtoq kitobasida yozuvlar saqlangan. Peshtoqining ikki yonidagi masjid va darsxona oldiga 2 qavatli 3 qismga ajratilgan chuqur ravoqlar va burchaklaridagi guldastalarda Buxoro me'morligiga xos qadimiy milliy an'analar aks ettirilgan. Madrasada 160 ta hujra bo'lib, ularda nafaqat Buxoro amirligi, balki butun O'rta Osiyo, Orenburg, Qozon, hatto Qrimdan kelgan talabalar tahsil olganlar. Minoraning dekorativ gumbazlari noyob silliqlangan g'ishtdan "o'rgimchak inisimon" qilib terilgan. Bu gumbazlarni Buxoro maktabi uslubida ishlangan eng yaxshi monumental san'at namunalari deyish mumkin.

### **Tadqiqot ob’ekti va predmeti;**

Manbalardan “Ko’kaldosh” tarixiy obidasi va uni moy bo’yoqda bajarish texnologiyasini o’rganish

### **Tadqiqot usuli yoki uslubiyoti;**

Manbalardan “Ko’kaldosh” tarixiy obidasining tarixi. O’zbekiston va dunyoga ijod qilgan yetuk rassomlarning texnologiyalariga, olgan bilimlariga nazariyasini o’rganish va amaliy ishni bajarish.

### **Tadqiqot jarayonini atroflicha yoritish;**

Ko’kaldosh tarixiy obidasi haqida

Kompozitsiya tarixi va rivojlanishiga doir qisqacha izoh

Kompozitsiyaning asosiy qonun – qoidalari

O’zbekistonda tasviriy san’at va kompozitsiya maktablarining rivojlanish tarixi

Asarni moy bo’yoqda bajarish texnologiyasi

Kartinda asosiy rang munosabatlarni idroq qilish va tasvirlash

O’zbekiston mashhur rassomlari

Atamalarning izohli lugati

### **Xulosa**

### **Adabiyotlar ro’yxati**

### **Ilovalar**

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

Ko’kaldosh tarixiy obidasi ko’p manbalarda O’rta Osiyo kontekstiga berilgan. Biz uni O’zbekiston mamlakati hususan Buxoro madaniyati va san’ati bilan bogladik.

San'atning eng ijobiy va muhim xususiyati shundaki, u fandan farqli ularoq voqea va hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik-badiiy obrazlarda ifodalaydi.

Ma'lumki, har bir jamiyat formatsiyasi san'at rivojiga o'zining ma'lum iqtisodiy-siyosiy pozitsiyasida turib, ma'lum darajada sharoit yaratadi. Shu boisdan har bir jamiyat san'ati o'sha o'z davri talabida xizmat qiladi. San'at qaysi jamiyatga, kaysi sinfga va millatga xizmat qilishi va bu sinf va millatning iqtisodiy va siyosiy yo'lida xizmat qilishiga qarab, uni sinfiy va milliylik xususiyati belgilanadi.

Har bir jamiyatdagi san'at erkin, xalqchil, insonparvar, mehnatsevar va boshqa yuksak insoniy goyaviyligi asosida vujudga kelsa, bu san'at o'zida xalqparvar, insonparvar, vatanparvarlik va milliylik kabi ilgor goyalarni ilgari surishga xizmat qiladi. Bu san'at keng mehnatkashlar ommasiga xizmat qiladi. Bu san'at xalqining maqsadi, vazifalari, orzu-umidlarini siyosiy va iqtisodiy yo'lini ifodalaydi.

Ma'lumki, har bir san'at asarida mavzu, syujet, mazmun va uning goyasi, ya'ni rasmni ishlashdan rassomning maqsadi nima?, shu asar bilan u nima demoqchi, aqarda qanday voqea, qanday xalqlar, qanday davr tasvirlanmoqda?, bularning hammasi rassomning badiiy mahorati vositasida, rang va bo'yoqlar koloriti asosida ifodalab beriladi. Shu boisdan asarni to'g'ri tushunadigan kishi bo'lsa, u asarni mavzusi, goyasi va syujetini ham o'z bilimi, asarni tushunishi bo'yicha aniqlashi va ifodalashi mumkin.

Rassomlar voqeani turli metod, xarakter va mazmunda ifodalaydilar. Ana shu tasvirlash uslubi, xarakteri va mazmuniga ko'ra san'at asarlari tur va janrlarga bo'linadi.

Rangtasvir asarda narsa va voqeani barcha elementlari, ularni perspektivasi, o'rni, rangi, materiali, turish holati, ichki mohiyatini bo'yoqlar yordamida, badiiy obraz va shakllarda ifodalaydi Rangtasvir asarlarida - kompozitsiya, ya'ni asardagi narsalarni shakli, tuzilishi, ularni o'zaro bogliqligi, o'rni va turish holatiga ko'ra aniq, to'g'ri ifodalanishi; kolorit - ranglarni uygunligi; ritm - asarni kompozitsion

elementlarni bejirim, tekis, dinamik holatda takrorlanishi; rang kontrasti - bir hil rangni o'z atrofidagi ranglarga mos idrok qilinishi; rang perspektivasi kabi tasvirlash vositalari asosida yaratiladi.

Rangtasvir texnikasi deganda - san'at asarini yaratish uchun zarur vositalarni tayyorlash, undan foydalanish uel - metodlari tushuniladi. Ma'lumki, rangtasvir asarlarini yaratishda rassom turlicha bo'yoqlardan foydalaniladi. Rassomlik texnikasi uzok tarixga ega bo'lib, u rassomlarning ijodiy izlanishlari bilan rivojlanib takomillashib keldi. Ibtidoiy jamiyatning paleolit davridayoq ishlangan qoyalardagi tabiiy qizil, jigarrang, sariq va qora rangdagi ishlar ma'lum. Antik va o'rta asr davri rangtasviri tabiiy, mineral va organik bo'yoqlarda yaratilgan san'at asarida yaqqol ko'rinadi.

Rangtasvir asarlari moybo'yoq, akvarel, guash, tempera, pastel, rangli qalamda ishlanadi. XV-XVI asrlardan moybo'yoqda ishlash rivojlandi.

Rangtasvir asarlar o'zining yaratilish metodi, uslubi, maqsadi va vazifasiga ko'ra bir mecha turlarga bo'linadi.

1. Monumental rangtasvir - arxitektura me'morchiligi bilan boglangan holda, jamiyat hayotidan olingan voqealarni ifodalab, umumtarbiyaviy vazifani bajaradi. Bunday asarlar asosan umumiy xarakterda bo'lib, uzokdan ko'rinishga moslashtiriladi va mo'ljallab ishlanadi. Shu boisdan ular bino devorlariga yoki biron satxga bo'yoqlar asosida ishlanadigan devoriy rasmlar va rangli toshlar, sopol, shisha, oyna kabi materiallar vositasida ishlanadi. Monumental rangtasvir ishlari haykaltaroshlik kompozistiyalari bilan ham ishlatiladi. Bunda ishlanadigan haykalni ulugvorligini, go'zalligini oshirishsta foydalaniladi. Monumntal rangtasvir hozirgi kunda san'at saroylarini, vokzallarni va metro stansiyalarini bezatishda ishlatilmoqda.

2. Dastgohli rangtasvir - maxsus tayyorlangan ramkaga tortilgan material mato xolst yuzasiga bo'yoqlar yordamida ifoda etilgan san'at asaridir. Bu asarlar maxsus stanokda yoki molbert deb atalgan qurilmada ishlanadi, shu boisdan bunday asarlarni dastgohli asarlar, ya'ni dastgohli rangtasvir deyiladi.

3. Dekorativ rangtasvir - asosan bezatish vositasida qo'llanib, me'morlik va amaliy san'at bilan bogliq holda ishlanadi. Bu san'at asosan bezag san'ati bo'lib, undagi tasvirlar ham ko'proq dekorativlashtirilgan holatda ifodalanadi. Bu san'at naqqoshlik, sahnalarni bezatish, kino san'ati va teleko'rsatuvlarini bezatishga keng qo'llaniladi.

Rassomlar doimo ta'qidlab shunday goyani ilgari surganlar; faqatgina munosabatlar bilan ishlab rangtasvir sirlarini qoidasi, savodli egallash mumkin. Rassom va pedagog N.R. Krimov shunday degan: "Rangtasvir munosabatlarining mosligi bilan paydo bo'ladi". Agar rangtasvirida munosabatlar noto'gri bo'lsa, eng toza va yorqin ranglar xam chalqash va tushunarsiz bo'lib qo'rinadi". Taniqli rangtasvirchi B. M. Ioganson munosabatlar metodi haqida shunday degan: "Yoruglik va rang munosabatlari xamda turlarni aniq qo'rsata olish rangtasvirning asosini tashqil qiladi".



# I. Bob. “Ko’kaldosh” tarixiy obidasining tarixi, O’zbekistonda tasviriy san’at va kompozitsiya

## 1.1. Ko’kaldosh tarixiy obidasi haqida

### Ko’kaldosh madrasasi



Ko’kaldosh madrasasi - Buxorodagi me’moriy yodgorlik. Buxoro xonining vaziri Qulbobo Ko’kaldosh qurdirgan (1568—1569). U ikki qavatli imorat bo’lib, Labi hovuz ansamblining shimolida joylashgan.

Ikki qanotli bosh tarzi ansambl maydoniga qaratilgan. Peshtoqini bezatib turgan koshinlar saqlanib qolmagan. Madrasa peshtoqidagi darvoza girix, va islomiy naqshlar bilan bezatilgan. Xotamqori uslubida terib mahkamlangan pilakchalardan yasalgan darvoza tabaqasi yaxlit taxtadan tayyorlangandek ko’rinadi. Madrasa hovlisiga 5 gumbazli miyonsaroy orqali kiriladi. Miyonsaroyning ichki gumbazlari va bag’allari, shipi o’ziga xos turli shakldagi murakkab to’rsimon yulduzsimon, qolibqori va iroqi uslubida pishiq g’ishtdan ganch qorishmasida terilgan. Madrasa hovlisi uzun (42x37 m), o’rtaga yangi imorat 1929 yil qurilgan. Hovli tomondagi 2 qanotli ravoqlar qatorini yuzma-yuz

qilib solingan peshtoqli baland ayvonlar ajratib turadi. Har bir ravoqdan alohida hujraga kiriladi. Hovli atrofi 2 qanatli 160 hujra bilan o‘ralgan. Yon tomonidagi hujralarning pastki qanatiga (tashqi devorlarida) xonani yoritish uchun panjaralar o‘rnatilgan. Yuqori qanatiga esa qator qilib chuqur ravoqlar ishlangan. Ravoqlar tepasini va ba’zi darcha panjaralarini bezatishda koshin ancha tejab ishlatilgan. Bosh tarzidagi peshtoq kitobasida yozuvlar saqlangan. Peshtoqining ikki yonidagi masjid va darsxona oldiga 2 qavatli 3 qismga ajratilgan chuqur ravoqlar va burchaklaridagi guldastalarda Buxoro me’morligiga xos qadimiy milliy an’analar aks ettirilgan.

Madrasada 160 ta hujra bo‘lib, ularda nafaqat Buxoro amirligi, balki butun O‘rta Osiyo, Orenburg, Qozon, hatto Qrimdan kelgan talabalar tahsil olganlar. Minoraning dekorativ gumbazlari noyob silliqlangan g‘ishtdan “o‘rgimchak inisimon” qilib terilgan. Bu gumbazlarni Buxoro maktabi uslubida ishlangan eng yaxshi monumental san’at namunalari deyish mumkin. Qulbobo Ko‘kaldosh Amir Abdullaxon Shayboniy bilan birga sut emishganligi uchun “Ko‘kaldosh”, ya’ni “Ko‘krakdosh” deb atalgan.



Ko‘kaldosh madrasasida Sadridin Ayniy tahsil ko‘rgan, u yashagan hujra muzeyga aylantirilgan va eksponatlar bilan jihozlangan. 1960— 70 va 1995—97 yillarda ta’irlangan.

## **1.2. Kompozitsiya tarixi rivojlanishiga doir qisqacha izox.**

Tasviriy san'atda kompozitsiya qonun va qoidalari insoniyatning ibtidoiy taraqqiyot davridan boshlab shakllana boshlangan. Ibtidoiy davr odamlari xayyotni kuzatsalarda, kompozitsiya sezgisi juda bo'sh rivojlangan.

Qadimgi sharq san'atidagi kompozitsiya ibtidoiy davrdan aloxida farq qiladi. qadimgi Sharqda kompozitsiya mavzusi tekislikda ma'lum tartibda tasvirlanib, quldorlik jamiyatining (marosimlari) konunlarida bo'ysindirilgan.

Qadimgi Misr san'atida kompozitsiyani dastlabki yangi usullari paydo bo'la boshlagan. Bu esa jamiyatda ijtimoiy xayotni ongli rivojlanishni natijasidir. Tasvirga chizgi, o'lcham, rang va tus munosabatlari yuqori darajaga qo'tarildi.

Qadimgi dunyo rassomlari tabiat yaratgan o'simlik, barg va gullarni tuzilishiga, yil faslini ketma – ket kelishida simmetriya va ritm tushunchaligini anglab, o'z ijodiy asarlarida, kompozitsiyada qo'llay boshladilar. Shuning uchun qadimgi greklar relief, fronton kompozitsiyalarida ritm va simmetriyadan unumli foydalanganlar.

O'yg'onish davri renessans insoniyatga ulug san'at allomatlarini etqazib berdi. O'sha davr rassomlari esdalik, kundalik, ilmiy maqolalarida kompozitsiya haqida qimmatli fikr, xulosalarni yozib qoldirdilar.

Erta O'yg'onish davrining vakillari Djotto va Mazachcho o'z ijodlarida perspektiva, plastik anatomiya, geometriya qonunlarini amalda qo'llab, kompozitsiya fanining bilimdoni ekanliklarini misolda qo'rsatdilar. Yuqori o'yg'onish davri rassomlar san'atning xar – xil turlarini bir – biri bilan boglab, uning nazariyasini ilmiy asoslagan xolda rivojlantirdilar.

Ular perspektiva yordamida kartinada chuqurlik, masofani tasvirini haqqoniy namoyyon etishga erishishdi. Qo'p yillik kuzatuv va analiz natijasida qo'zga qo'ringan rassomlarning asarlarini goya tuzilishi, rang echimidagi uslub, amaliy

umumlashtirib Albrext Dyurer “Rang tasvir xaqida uch kitob” ilmiy nazariy meros yozib qoldirdi.

Leonardo da Vinchi va Albrext Dyurer o’z maqolalarida va badiiy asarlarida statik (xarakatsiz) va dinamikaga (xarakat) aloxida axamiyat bergan edi.

Fransuz rassomi E. Delakrua o’z kundalik va ilmiy maqolalarida Leonardo da Vinchi, A. Dyurer, R. Rubenslarni kompozitsiyada oid qonunlarini kengaytirib chuqur ma’nolar bagishlab davom ettirdi.

Inson qalbiga olloxdan inom etilgan go’zallik va qobiliyatni o’ziga mujassam etgan allomalarni er yuziga kelishini insoniyat biz necha bor gubori bo’lgan Leonardo da Vinchining har qanday mushkul ishlarni osonlik bilan uddasidan chiqadigan odil inson shaklida qo’ramiz.

Betakror aql – zaqovatli, xotirasi kuchli buyuk alloma chizgan tasvirlari bilan insonni xayratga solar, fikr – muloxaza kuchi bilan lol qoldirardi. U Milan shaxriga Dominikanlik aka – ukalar uchun “Maxfiy kecha” nomli go’zal asar yaratdi. Unda avliyolar chexasiga ulugvor qilib tasvirlanadi. Faqat Isusni yuz qiyofasini tasvirlashda iloxiy qudrati etmaydi chala qoldirgan va umrini oxirigacha bitira olmagan edi. Leonardo odam anatomiyasini Salena ta’limotiga asoslangan xolda chukur o’rgandi, murdalarning suyak muskullarini qizil qalamda sinchiklab chiza boshladi va odam anatomiyasi tasvirlari kitobini yaratdi. U otlar anatomiyasi kitobini xam yaratgan. Bu anatomiyaga oid chiziklarining qo’p qismi Leonardoning avtoportretlari bilan bir qatorda bizlargacha etib kelgan.

Leonardo Franchesko del Djokondo uchun uning xotini Liza portretini 4 yil mobaynida ishladi, ammo shunday bo’lsada portretni oxiriga etkaza olmadi. Portretda ayyolning xamma go’zal xislat, fazilatleri, yarqiragan xam qo’zlari kipriklarigacha jonli odam nigoxi qo’rinishida asosli qilib tasvirlagan.

Tasviriy san’atda bunday toj asarning mavjudligini dunyoda eng qobiliyatli, zexnli olim, alloma musavvir qalamiga insonlarni beixtiyor xayratga soladi.

XVI – oxirida kompozitsiya o'quv fani sifatida shakllana boshladi. Buni V. Neleng, S. Vasilyov kabi metodistlarning Fransiya safaridan so'ng o'qitish tizimi xaqidagi xisobotlari orqali bilish mumkin. 1882 – yili taniqli pedagog – rassom Violil le Dyukani “Tarixchining tarixi” kitobi rus tiliga tarjima qilgan edi. Bu kitob shaxsiy ish tajribasidan kelib chiqib, tasviriy san'at o'qitish metodikasidan suxbat tarzida berilgan. “Sochinenie” qismida, xavo perspektivasi ma'lum konunlarga tayanishini o'qitirib o'tilgan. Tasviriy san'atga kompozitsiya masalalari xaqida dastlabki metodik bayyonnoma muallifi, amerikalik pedagog – rassom A. Donddir. Bu o'quv qo'llanmada tasvirda xar xil shakl, tusalarni qogoz va matoga to'g'ri joylashtirish, qogoz xajmi va formatiga aloxida axamiyat bergan. Tasviriy san'atda yangi impressionizm oqimining paydo bo'lishi – rang tasvirda yangilanishga vosita bo'ldi, san'atning oldinga rivojlanishiga turtki vazifasini o'tadi.

XX asr boshlarida Garbiy Evropa davlatlarida va Rossiyada xar – xil badiiy oqimlar paydo bo'la boshladi: futurizm, kubizm, ekspressionizm, dadaizm, syurealistlar shular jumlasidandir.

Tartibsiz muloxaza, qarama – qarshi fikrlar kurashi tasviriy san'at va Kompozitsiyani o'qitish metodikasida chalkashlik va tartibsizlik olib keldi. XX asrning birinchi choragida tasviriy san'at Garbiy Evropa va Amerikada berk ko'chada kirib qolgan edi.

Shu bilan birga ko'p san'at maktablarida rassomlar realistik san'at yo'lida kompozitsiya nazariyasini o'rganishni davom ettirdilar. Rossiya tasviriy san'atida XVIII asrgacha ikona rangtasviri taraqqiy etgan. Eng qobiliyatli rus ikonachi rassomlardan bir Andrey Rublyov edi. Uning mashxur “Troisa”si ikona janridagi qadimgi klassik kompozitsiya namunalaridan biri xisoblanadi. Kompozitsiyada bu rassom gavda xolatining aniq tasviri, rang garmoniyasi va yaxlitligiga erishdi.

XVIII asr rus tasviriy san'atida, realistik badiiy maktabning asoschilari A.R. Losenko, G. Ugryumovlar xisoblanadilar.

Rossiyada Peterburg badiiy akademiyasini bitirgan A. Ivanov, A. Egorov, V. Shebuev, A. Venesianov, K. Bryullovlar o'z ijodiy va pedagogik faoliyatlarida kompozitsiya muammolariga ko'proq ahamiyat berib, tasviriy san'atni yangi pogonaga qo'tardilar.

1757 – yili tashqil topgan Peterburg Badiiy akademiyasida mutaxassislik fanlarini o'qitishni muntazam tarzda yo'lga qo'yilishi, Rossiya tasviriy san'atini rivojlanishiga o'z ta'sirini qo'rsatdi.

Mashxur rassom va pedagog A.R. Losenko o'z faoliyatida ijodiy yondashib kompozitsiya masalalari ustida ishladi. U xamma tasviriy vositalar asar goyasiga, mazmuniga qaratilgan bo'lishini ta'qidladi.

Losenko o'z vaqtida akademik ta'lim metodini yangilashni angladi va yangi uslub – metodikasini ishlab chiqdi. Uning yaratgan Akademiya o'qitish nazariyasi XIX asr o'rtalarigacha davom etdi. Losenko davridayoq Rossiya badiiy Akademiyasi dovrugi va obro'yi dunyoda tarqaldi. A.R. Losenko yuqori saviyali kompozitsiya ustasi edi. Buni “Vladimir pered Rognedoy” kartinasi misolida qo'rish mumkin. Losenko dars bergan tarixiy janr klassika kartina tuzilishni masalalariga qo'p e'tibor berilar edi.

P.S. Sokolov, G.L. Ugryumov, O.A. Kiprenskiy, K.R. Bryullov kabi ulug rassom pedagoglar A.R. Losenkoda o'qib ta'lim oldilar.

Losenko boshlagan ishni va Akademiyadagi pedagogik faoliniyatni S.L. Kozlov, R. I. Sokolov (1782 y) davom ettirdilar.

Ayniqsa Ugryumov, Losenko boshlagan tarixiy janr klassika kompozitsiyani davom ettirdi, uning kompozitsiya nazariyasini mukammallashtirdi.

Uning o'quvchilaridan A. Ivanov, A. Egorov, V. Shebuevlar xam ustozning uslublarini davom ettirdilar. Shunday qilib rassom – pedagog va metodistlar XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlarida tasviriy san'at va kompozitsiyani o'quv predmet sifatida rus badiiy maktabda o'qitilishi mumkinligini isbotladilar. Bu

yo'nalish rangtasvir kompozitsiyasi ustasi K. Bryullov tomonidan qo'llab quvvatlandi.

K. Bryullov o'zining pedagogik va ijodiy faoliyatida gavdaning plastik tuzilishiga, asarda kompozitsiya muvozanatini haqqoniy tasvirlashga ahamiyat berdi.

“Pompeyaning so'nggi kuni” asari bunga yorqin misol bo'la oladi. Asarda insonning xayyotda sodir bo'ladigan xavfli, fojiali dramatik daqiqalardagi xolati, tabiatda chaqmoq natijasidagi kuchi yorug nurlari ostida bo'layotgan ta'sirchan voqea kontrast ranglarda tasvirlangan.

Odamlar qo'zidagi qo'rkinch, ularning go'zal nigoxi, xatti xarakatlari, shijoatli onalar badiiy yuksak maxorat bilan, yuqori darajada jozibali tasvirlangan. Bryullov bu asarida badiiy Akademiyaning yuksak an'analarini davom ettirdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida ilgor ma'rifatli rus rassomlari tashqi dunyoni xayyotga to'g'ri tasvirlash uchun kurash olib bordilar. Realistik san'atning rivojlanishida xissa qo'shdilar.

I.N. Kramskoy boshlik sayyor rassomlar katta tasvir qo'rsatdilar.

Asosan halq manfaatini qo'zlab, xayyotdagi muxim voqealarni kuzatib, ijod qildilar, asar goyasga katta ahamiyat berdilar. Qo'plab rus rassomlarining ustozlari.

R.R. Chistyakov mutaxassislik fanlarni o'qitishning yangi tizimi yaratdi.

Realistik san'atning buyuk namoyondasi I.E. Repin kompozitsiyani nazariy va amaliy rivojlanishiga muxim xissa qo'shdi. Shuningdek tarixiy janrda xar tomonlama yangi novatorlik vositalari bilan V. Shukurov rus rassomlariga o'z ta'sirini o'tqazdi.

Tasviriy san'atda kompozitsiyani riojlantirish tarixi bilan tanishib, imkoniyat darajasiga mavjud fanga tegishli ma'lumotlarni tartibli ravshda o'rganib, kompozitsiya nazariyasi haqida xulosaga ega bogliq.



### 1.3. Kompozitsiyaning asosiy qonun – qoidalari.

Har qanday ijodkor o'tmishdagi rangtasvir san'ati ishlari merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir, kompozitsiya konun uslubiyotini xam o'rganadi.

Amaliyotda kompozitsiyaning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o'zlashtirish, kontrast qonun vositalari mazmuni va goyaga bo'ysinish kompozitsiyaning asosiy qonunlari xisoblanadi.

Bu konunning belgilari E. Kibrikning kitobda to'la va chukur analiz qilib berilgan. Kompozitsiyada yaxlitlik belgisi qonuniga rioya qilinganligi sababli, san'at asari bo'linmas bir butun bo'lib qo'rinadi.

Kompozitsiya yaxliligida kompozitsiya elementlari shakl, xajm, “dog”, oralik xarakter nusxa, imo-ishora bilan ifodalanadi. Misol tariqasida I. Repinning “Kryostniy hod v Kurskoy gubernii” kartinasi bir qarashda yaxlit “dog” shaklida qo'rinadi.

Kompozitsiyadagi omma–xaloyiq tasviri diogonal joylashgan bo'lib, kartinani to'rt burchagini boglab turadi. Kartinada nixoyatda qo'p sonli xaloyiq jamoa tasvirlangan bo'lib, xar bir kishi xarakterli, salbiy, ijobiy obrazlar orqali va sinfiy qarama – qarshiliklar, xullas rus jamiyati o'z ifodasini topgan.

Kompozitsiya xaqikat qonuni – asosan uchta belgi bilan ifodalanadi. Birinchi belgi badiiy asarda sodir bo'layotgan voqeaning o'ziga xosligi. A. Savrasovning “Qora qargalar uchib keldi”, I. Levitanning “Oltin kuz”, A. Kuindjining “Qayinzorda”, A. Rivolning “Xavo rang kenglikda” manzaralarida mazmun, nafasat bilan birga rus tabiatini o'zga xos obrazi tasvirlangan. Tipizatsiya qonunining ikkinchi belgisi bu sodir bo'layotgan voqea mavzusini, xarakat xolatini vaqtini tasvirleydi.

Ayniqsa qo'p figurali kompozitsiya mavzudagi personajlarni xar xil xolatda aks ettirilgan I. Repinning “Kutmagan edilar” asarida tomoshabin faqat

personajlarni tasvirlangan xolatini emas, balki ular xibisdan qaytgan tasodif qo'rishdan oldin nima ish bilan band, qanday xolatda ekanligini tasavvur qiladilar. Keksa onasi royal chalishni to'xtalib, kresloni chetga surib, o'glini qarshi olishga o'girilgan.

Keyinchalik kutilmagan, uchrashuv, natijada qalbni to'lqinlantirib qo'zlari quvonch yoshlarida to'la xolatga aylanadi. Bu erda bo'layotgan kulminatsion daqiqa xayotiy voqeani mavzu bilan boglovchi xarakatdagi vositasidir. Pimenev "Yangi Moskva", "Ertangi qo'chalarda to'y" asarida qo'z oldimizga o'zgarayotgan xarakatdagi zamonaviy shaxar xayotini qo'rsatgan. To'y marosimini yo'nalishida kelajak xayyotga shaxdam qadam tashlayotgan halklarning xolatidir. Tipizatsiya qonuning uchinchi belgisi bu – yangilikdir.

Realistik san'at xaqiqatni to'gri ifoda etib qolmay, rassom tuygularini, estetik go'zallikni, tasavvurni jozibali tarannum etadi.

Badiiy obrazdagi estetik sifatlar, kompozitsiya echimidagi yangiliklar rassom tomonidan kashf etiladi.

Estetik kashfiyotlarni Mikelandjelo, Tistian, Rembrantning o'lmas asarlarida, A. Deyneka, A. Plastov, K. Yun asarlarida kompozitsiya tuzilishining badiiy vositalaridan mavzuda yangilik tushunchasini qo'ramiz. "Novizna" – yangilik oqimini biz A. Kuindjining "Qayin – zorlar", V. Polenovning "Moskvadagi xovli" manzarasida qo'ramiz.

Kompozitsiyaning asosiy qonunlaridan biri kontrastlik qonunidir. Leonardo da Vinchi "Rangtasvir qonunlari" ilmiy asarida o'lcham qarama – qarshiligi xaqida, kata – kichik, past – baland, yupqa – qalin, xarakter, faktura, materiallar kontrasti to'grisida yozadi. Mikelandjelo tekislikdagi xajm kontrastlariga ko'p ahamiyat beradi. Inson predmetlar shaklini faqat soya va yorug kontrastlik orqali sezadi va o'z ongida singdiradi.

Portret janrida rassomlar qadimdan "Ton kontrasti"dan foydalanib, yorug figurani tasvirlashda tog fondan foydalanganlar. XIX asrda san'at ustalari portretni

yorug fondan foydalanganlar. V Serovning “Shaftolilik qiz” portretida, yuzi tog tusdagi qiz, engil yorug deraza fonida tasvirlangan.

Rangtasvirda kontrast qarama – qarshi issik va sovuq ranglar mavjud. Qarama – qarshi ranglar bir – biriga yonma – yon tursa, ranglar kuchi qo’payadi: qizil – yashil, qo’q – zargaldoq, oq – qora, va xoqazo.

Kompozitsiyaning tuzilishida “Psixologik kontrastlar” xam mavjud. Iogansonning “Eski Ural zavodida” kartinasida erga engashib o’tirgan ishchini yangi qimmatbaxo libosda turib, sinchiklab kuzatayotgan fabrika egasiga qarama – qarshilik qonuni kuchli tasvirlab berilgan.

Kompozitsiyaning qoida, usul va vositalari.

San’at asarlarini taxlil qilganimizda, kompozitsiya qoida va usullari o’z moxiyatini asta – sekin yoqotib, yangi kompozitsiya qoidalari paydo bo’la boshladi. Badiiy asar yaratishda rassomlar tabiiy va ongli ravishda kompozitsiya qonunlarigarioya qilishadi. Xar bir ijtimoiy – jamiyat san’at oldida yangi zamonaviy vazifalarni qo’ndalang qoyadi.

Xozirgi vaktida biz kompozitsiyani nazariy asoslarini ikki guruxda ajratamiz.

1. Kompozitsiya qonunlari.
2. Kompozitsiya qoida va usullari.

Kompozitsiya tuzilishining usullari (yo’llari).

Kompozitsiyaning asosiy usullaridan biri ritmni ifodalash, Kompozitsiya mavzusi markazini aniqlash, simmetrik eki assimetrik xolati, massani ikkinchi plandagi kenglikdagi asosiy qurilmasini joylashtirish.

Ritm xayotga va san’atda mavjudligi rassom uchun yaxshi belgi, vositasidir. Agar goyasini kompozitsiya tuzilishini idrok etishda ritm estetik obrazli tasavvur rolini o’ynaydi va kontrast rang, ton qonunlariga suyanadi.

## Kompozitsiya usullari

Uzoq kenglikni ochik manzarada gorizental xolatda tasvirlansa, kenglik bepoen katta bo'lib tuyuladi.

V. Meshkovning “Ural xaqida o'ylar” manzarasi juda gorizental uzun formatda joylashtirib tasvirlangan. Qo'p planli manzarani orqasida o'rmonzor tasvirlangan. Oldingi va orqa plandagi kontrast erqin ranglar, engil ufq chizigi masofani, bepoen kenglikni aks ettiradi. Kompozitsiyani gorizental usulda ifodalashda tinch, osoishtalik xolatini sezamiz.

Kompozitsiyani parallel, vertikal yo'nalishda bo'lishi tantanali ulugvor, ko'tarinki rux xolatini anglatadi. Bunda J. Abdullaevning “Quruq er ovchilari” kartinasi misol bo'lishi mumkin. Diogonal yo'nalishi esa xarakat xolatini kuchayishi eki susaishini qo'rsatadi. V. Surikovning “Boyarinya Morozova” kartinasida chananing xarakatdagi yo'nalishi, chopib borayotgan bola, xayajon bilan kuzatib turgan turli libosdagi xaloyiq – omma pastki o'ng burchakdan, yuqori – chap burchakda ifodalashga imkoniyat beradi.

## Kompozitsiya vositalari.

Chiziq, shtrix, rangli va tusli dog (surtma) soya – erug, rang, chiziqli, xavo va rang perspektivasi kompozitsiyaning vositalaridir.

Chizikni esa tasviriy san'atning asosiy vositalaridan biri deish mumkin. Undan uzoq muddatli, qiska muddatli kompozitsiya eskizlarida foydalaniladi. Rassom qogozda predmet shaklini ochroq, to'qroq chiziqlar orqali ifodalanishi mumkin.

Kompozitsiya amalda dastlab qalamtasvirda bajariladi. Keyingi bosqichda shtrix chiziqlarni qalinligi orqali predmetlarni soya, erug joylarida shakl berib, chukurrok, masofani ifodalashga beradi.

Rang va tus kompozitsiya tuzishda muxim rol o'ynaydi. Asarda plastik xajm, chiziqli, xavoiy, rangli perspektivalarni roli kattadir.

Yuqorida biz kompozitsiyaning asosiy vositalarni qayd qilib o'tdik.

Kompozitsiya kursining asosiy vazifasi talabalarda ijodiy fikrlashni, san'atni idroq etishni, va taxlil qilishni, xayetni qo'rsatish va obraz'li tasavvur etish, badiiy estetik did va madaniyatni shakllantirish, ularni badiiy – pedagogik faoliyatiga tadbiq qilishdir.

Kompozitsiya amaliy xamda nazariy qismdan iborat.

Nazariy ma'ruzalar auditoriyadagi amaliy mashg'ulotlarni, o'y vazifalarini ongli ravishda bajarishni talab etadi. Kirish qismida kompozitsiyaning asosiy qonun – qoidalari, usul va vositalarini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'atni janr turlaridagi kompozitsiyani o'ziga xos muammolarini, san'at asarida mavjud qonun talablarini ifodalaydi.

Kompozitsiya nazariyasidagi bilimlarni chukur o'zlashtirishda, maxsus seminarlarni ahamiyati katta. Bulardan tashqari talabalarni mavzular asosida referat yozib ma'ruzalar bilan chiqishlari, ularni muxokama qilish yaxshi natija beradi.

Amaliy qismida asosiy maqsad talabalarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishiga, xaetni qo'rsatish, uni tasviriy vositalar bilan aks ettirish, bosqichma – bosqich eskizini oxirigacha etkazishdan iboratdir.

Amaliy mashg'ulotlarda kompozitsiya eskizini mazmun goyasini maqsad va vazifalarini ongli ravishda idroq etish muximdir.

Bajarilgan amaliy vazifalarni kamchilik va sabablarini muxokama qilib tushuntirib ijodiy fikrlashni shakllantirish lozim.

San'at muzeylari, badiiy qo'rgazma zallarida, ekskursiya, etuk rassomlar bilan uchrashuvlar tashkil etish, ular bilan suxbatlar o'tqazish, talabalarda badiiy didni boyitadi.

Berilgan mavzu bo'yicha eng "yaxshi kompozitsiya eskizi uchun" talabalar o'rtasida tanlov e'lon qilib yaxshi eskizlaridan qo'rgazmalar tashqil qilish, qoliblarni ragbatlantirish ijodiy samara beradi.

Tasviriy san'atda bir necha janrlar mavjud, tarixiy janr, jang manzaralarini aks ettiruvchi janr, maishiy janr, portret, manzara, natyurmort. Xar qanday san'at asarining negizini kompozitsiya tashkil etadi. Natyurmort tuzish bu ijodiy jaraen. Unda rassomning didi, laeqati, kompozistion madaniyati, bilim saviyasi namoen bo'ladi.

#### **1.4. O'zbekistonda tasviriy san'at va kompozitsiya maktablarining rivojlanish tarixi.**

O'zbekistonda san'at va madaniyatning rivojlanishi o'zining qadimiy tarixiga ega. U bir necha asr davomida va turli bosqichda san'at, madaniy merosimizni boyitdi. Bizgacha etib kelib, hozirga Parijdagi milliy kutubxonada saklanayotgan, XIX asrda mansub Rashid-ad-Dinning "Maqolalar to'plamiga" ishlangan miniatyura (mo'jaz san'at) portretlari O'rta Osiyoda qadimgi tasviriy san'at asarlari xisoblanadi.

XIV asrda kelib Samarkandda Amir Temurning "Bogi Shamol", "Bogi - Dilkusho" saroylari devorlariga, xarbiy yurish, jang va ov marosimlarida Temurni o'z kanizaklari, Amir, shaxzodalari bilan o'z davrining miniatyurachi rassomi Axmad-Bogi-Shamol tomonidan tasvirlangan.

O'rta Osiye miniatyura san'atini qo'llab rivojlanishi XV asrda boshlanadi. XV asrni ikkinchi yarmida Xirot Xusayn Boyqaro saltanatida ulug o'zbek shoiri Alisher Navoiy raxnamoligida taraqqiy etgan madaniyat o'chogida aylanadi.

Xirot adabiyot va san'at namoendalari ichida K. Bexzod erqin yulduz bo'lib erqiradi.

Ulug miniatyurachi musavvir o'z zamondoshlari: Sulton Xusayn Boyqaro, Shayboniyxon, shoirlar Jomiy, Xatefi, Kabilarn ajoyib portretlarini chizib bizlarga meros qilib qoldirgan.

Portretlar chukur ruxiy xolatlari bilan ajralib turadi. Sulton Xusayn Boyqaro portreti tashqi qiyofasi xarakterli xaqida Bobur o'z xotiralarida shunday tariflaydi: U ma'noli qarab turgan, maxobatli, gavdasi kelishgan ba misoli sher, berilgan pasti ingichka. U sergap, xushchakchak Xurosonda 40 yil davomida davlatpanox bo'lgan, Bexzod O'zbek xoni Shayboniyxon portretini 1507 yil Xirot olingandan keyin yaratdi. U ulug sarkarda davlat arbobi, ilmli olim, adabiyot va san'atni nixoyatda uluglaydigan shaxs edi.

Xon kalta engil oddiy oddiy Xirot xalat boshida salla, chordona qilib o'tiribdi. Ogir vaznli, to'gri tizzasida yuz qiyofasida matonatli kalta galb egasi siyomosida tasvirlangan.

Bexzod portretlari yaxlit ranglar bilan tasvirlangan, Chiziqlarni aniq va plastik tuzilish xususiyatlari tasvirlangan. Chiziqlarni aniq va plastik tuzilish xususiyatlari Shayboniyxonni qudratli elka va gavda qiyofasini ifodalab beradi.

Shayboniyxonni portretida intererdagi siyoxdon, kitob, kamchin, katta ong barmogidagi uzun kabi predmetlar tomoshabinga ulug sarkarda qiyofasini ochib berishga, boyitadi.

Kamoliddin Bexzod o'z asarlarida o'sha davrda portret miniatyura san'ati cho'qqizga erishdi. Xusayn Boyqaro karorgoxida miniatyura san'atida boshqa rassomlar xam ijod qilgan. Tarixchi Xondamiz 1498 yil Qosim – Alini asrimizning qaymoqlari, nozr asar mualliflarining sardori deb baxolagan edi.

U san'at sir-asrorining Xusayn Boyqaro kutubxonasida egalagan edi.

Shayboniyxon saroyida bexzodning qobiliyati shogirdlaridan biri Maxmud Muzaxxib (Muzaxxib Oltin bilan bezovchini anglatadi) o'z ustozidan eng yaxshi fazilatlarini tasviriy vositalarda yaxlit ifoda etishni o'rganadi. Uning dastlab xammaga ma'lum A. Navoiy portret (XVI) misol bo'lishi mumkin.

Mo'ysafed yoshlardagi shoir, xassoga tayanib turgan xolda tasvirlangan.

“Men keksaysam xam tanam tetik mening so'zlarim xanuz kilich kabi o'tqir” degan edi Alisher Navoiy.

XVII-asrda bir xil o'rta Osiyo rassomlari o'zi vatanidan uzoqqa miniatyura san'atida an'analarini davom ettirdilar.

Rassom Davlat Muxammad Xindistonga boburiylar saroyida sulton va ularni bilalarini, saroy amirlarini, shoirlarining portretlarini yaratdi.



Shu davrda Xindistonda Muxamad Murod Samarkandiy Bobur saroyida ijod qilib, portret ustasi nomini oldi.

Miniatyurachi rassom tashqi dunyodagi haqiqatni – kuzatib xayyotni tasavvurlari asosida Kompozitsiyaning ma'lum qonun qoidalariga amal qilgan xolda asar yaratadi.

Shuni ta'qiblab o'tish kerakki, O'rta Osiyo va O'zbekiston xalqlarini o'tmishda qoldirgan boy madaniy va estetik merosiga qaramay, tarixiy ob'ektiv sharoitlar sababli realistik tasvir san'at o'z shaklini topmadi.

XIX – asr 60 – yillari o'rta Osiyoda, rus ilgor realistik san'ati o'z ta'sirini qo'rsata boshladi. Tashrif buyurgan rassomlar o'z asarlarida erli halq va tabiatni tasvirladilar.

Turkistonda birinchi bo'lib ijod qilgan rassomlar ichida “Turkiston turkumi” suratlarini yaratgan ijodkor V. Vereshagin xayetni kuzatuvchi sifatidir etnografik xayet tarzini chukur o'rganib etyud va eskizlar bajarib natijasida xar xil mavzusida asarlar yaratadi. Uning “Balogatda etmagan bola savdosi”, “Zindon”, “Naqshbandlar” shular jumlasidandir.

Uning tarixiy janrdagi yaratgan eng katta asari “Tantana qilmoqdalar”, deb nomlanadi “Registon maydonida bo'lib o'tayotgan bu marosimda mustaqillikka karshi yurish qilgan kuchlar ustidan qozonilgan galaba tantanasi o'z ifodasini topgan”.

Kompozitsiya jixatidan ko'p figuralari qo'p planli bu asarda oddiy fukaro darveshlar, oddiy yurboshi

sarbozlar, ularni bo'lib o'taetgan tantanada psixologik munosabatlari, milliy liboslari aks etgan qeshning erug shu'lada samarkand tabiati iliq gammaga tasvirlab berilgan.

O'zbekiston zamonaviy realistik tasviriy san'atida asosan XX asr boshlarida O'zbekistonda kelgan rus rassomlari tomonidan asos solindi. Birinchilar qatorida

M. Kursin, P. Bure, I. Kazakov, A. Yusupov, N. Rozanov kabi rassomlarni aytish mumkin.

1981 – yili Samarkandda, 1919 yilda Toshkentda Turkiston o'lkasi rassomchilik maktabi tashkil topdi, boshqa rassomlar qatorida A. Volkov eshlariga dars berdi. Samarkandda esa O. Tatevosyan raxbarlik qiladi.

O. Tatevosyan rassom sifatida 20-yillarda tanildi. U o'zini manzarani, natyurmort, portret, maishiy janrlarda sinab qo'radi, va asarlarida sharqni o'zicha talqin qildi.

Rassom shaxar tor qo'chalarini qo'rib, masjid-madrasalarga, xonadonlarga kirdi, bozordagi shovqin – suron, savdo – sotiq bilan band, ranglarga boy libosdagi odamlar xatini kuzatdi. Ularni kuesh nurida tovlangan sherlarini mashaqqatli mexnat evaziga etishtirilgan meva, noz – ne'matlarning rang – barangligi uning qo'zini qamashtiradi, yangi ijodga ilxom bagishlaydi.

U ilk bor “Xivali qiz” suratini yaratdi. Peshin payti, charogon kush nuriga gard chumilgan Xiva xovlilarining birida o'smir qiz charx o'tiribdi. Unig engida quldor kuylak, boshida chiroyli do'ppisi.

Qo'zlarini diqqat bilan boqishi, boshini sal egilganligi, qo'llarning xarakati, uning berilib ishlatganidan dalolat berib turibdi, surat bo'eklarining erqinligini, uni erkin uslubda ishlaganligi tufayli, asardagi milliy koloritni yanada chukur xis etamiz. Uning egnida quldor qo'ylak, boshida chiroyli do'ppisi qo'zlarini diqqat bilan boqishi, boshini sal egilganligi, qo'llarning xarakati, uning berilib ishlatganidan dalolat berib turibdi. Surat bo'eklarining erqinligi, uni erkin uslubda ishlanganligi tufayli, asardagi milliy koloritni yanada chukur xis etamiz. Bu asarni O'zbek tasviriy san'atida birinchi realistik ijod namunasi olish mumkin. O'z paytida u Tretyakov davlat galereyasining doimiy ekspozitsiyasining o'rin olgan edi.

Rassom 30 yillarda katta tematik suratlar ishlash uchun etyudlar, xomaki chiziqlar sifatida materiallar to'pladi.

Uning “Xujum” nomli pillakashlik fabrikasi “Registonda 8- mart” polotnalari shular jumlasidandir. U oʻz ustozlari D. Kardovskiy, I. Repindan oʻrgangan xaetni chukur aks ettirish, badiiy obrazlar yaratish anʼanalarini davom ettirib oʻziga xos ranglar “Politra”sini yaratadi. “Uzum uzish” eki “Dugonalar” kartinasida qoʻp millatlik vatanimizda xalklar doʻstligi goyasi obrazi ochib berilgan. Janubning saxiy kueshi, guzal farovon turmushi asar Kompozitsiyasida moxirona xal etilgan.

Qalin novda va barglarni orasidan tushgan kuesh nurlarida pishib etilgan uzum boglari manzarasi fonida ikki qiz tasvirlangan. Biri oʻzbek, ikkinchisi rus qizi, ular Kompozitsiya maʼnaviy markazini tashqil etadi.

Asarning personajlari, zavq bilan tomosha qilaetgan, qizlar xam, bolalar xam keksa bogbon xam bir oila aʼzolaridek qoʻrinadi.

Tasvir erqin bueklarda ishlangan. Unda xavo qoʻp boʻlib, serkuesh Oʻzbekistonninguzal tabiati juda nafis ranglashga aks ettirilgan.

O. Benkov, xayetni koʻp koʻrgan, eshi ulug odamlar suratinin chizishni ektiradi. Uning eng yaxshi yaratgan asarlaridan biri “Ilgor kolxozchi portreti” edi. Unda sochlariga ok oʻralgan, mexnatdan chinikkan insonning obrazi aks ettirilgan.

1945 yili P. Benkov safdoshi – shogirdi Z. Kovalevskaya bilan bir – birlarini portretlarini chizishdi.

Portret ulug gammada ishlangan boʻlib, ayni ijod pallasini aks ettirgan. Samarkandda oʻtgan xaetni tematik Kompozitsiyalar maishiy kartina va portretlarga boy boʻldi. Lekin manzara ishlashni xam kancha qilmasdiki.

U uzining 20 yillik ijodida “Bibixonim”da baxor, “Shaftoli gulladi”, “Tokzorli xovli” kabi ajoyib manzaralarni yaratdi. Biz yukorida qoʻrib chikkan asarlardan P. Benkovning nakadar zabarbast rassom boʻlganligida ikror boʻlamiz.

Uning ijodi pedagogik faoliyat bilan chambarchas boglangan. U Samarkand rassomchilik bilim yurtida umrini oxirigacha eshlarida saboq berdi, tasviriy san'at sirlarini o'rgatdi. U ajoyib ijodkor eshlarni tarbiyaladi.

Shular orasida O'zbekiston xalk rassomlari Lutfulla Abdullaev, malik Nabiev, Abdulxaq Abdullaev, z Kovalevskaya O'zbekistonda xizmat qo'rsatilgan san'at arboblari Yu. Elizarov, R. Temurov, V. Fadeev rassomlar A. Rozikov, R. Chernishev va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Uning pedagogik maxoratining siri, yuqori darajali qobiliyati, chukur bilimida, eshlarga bo'lgan mexrida edi. U o'z o'quvchilarda kundalik xaetni sezish uni go'zalligini ko'ra bilish va bu guzallikni o'z asarlarida aks ettirishni o'ktiradi. Naturani to'gri anglab chizishni, fikr yurgazishni, xotiradan chizish, kuchaytirishni talab qildi. Muntazam ravishda soya – erug ranglarni o'rganishini chizib qo'rsatadi.

Shogirdlar xatolarini qo'rsatib, bilan professional maxoratini orttirishga undardi.

Benkov Eshlarda san'atda bo'lgan ijodiy kabi muxim kimmatli fazilatlariga ega edi. Samarkandda rassomchilik bilim yurti shakllanishida Benkov o'z tajriba bilimini ayamadi.

1936 yili Leningraddagi sobiq ittifoq qo'rgazmasida Benkov uni o'quvchilarning ijodi namunalari yuqori baxolar oldi.

Bu ajoyib inson, o'z asarlari kabi erug, saxovatli edi. Shu yillar Respublika rassomchilik maktabini B. Xamdamiy bilim yurtlarini A. Toshkenboev, I. Abdullaev, A. Rozikovalar, Moskva, Leningrad, Penzabilim yurtlarini I. Ikromov, A. Sa'diy, O'. Tansiqboevlar tamomlab ijodga yo'llanma oldilar.

Ularning ijodiy maxorati "To'y (1932)", B. Xamdamiyning, I. Abdullaevning "Paxta terimi (1931)", Roziqovning "Maktabga (1932)" asarlarida namoen bo'ldi.

Akram siddiqiyning “To’y” kartinasi katta gulli so’zana kontrast ranglarda, Kompozitsiya tuzilishi amaliy san’at elida tasvirlangan. U uzbek xalk amaliy san’atini yaxshi o’rgangan edi. Realistik san’at yo’lidagi bu asarlarning yaratilishi Respublika badiiy xayetda muxim voqea bo’ldi.

Ijodiy izlanishni A. Siddiqiyda yaqin bo’lgan O’. Tansiqboevning erqin ranglar tizimida “Choyxona” (1934) kartinasini yaratdi. B. Xamdamiyning tingdoshi rassom A. Toshkentboev mexnat, kundalik xaetni voqealari mavzusidagi asarlar yaratdi. 1934 yili bularni yaratgan Kompozitsiya asarlari qo’rgazmasida yaxshi baxolandi. P. Benkov bilan Samarqand rassomchilik maktabdida eshlarda dars bergan Z. Kovalevskaya “Teatr lojasida” nomli ajoyib asar yaratdi. Teatr lojasida o’tirgan o’zbek qizlarni nigoxlarida xayajon, go’zallik xis tuygularini qo’ramiz.

Orqada e’tibor bilan binoklda kuzataetgan keksa erkak va aelni xotirjam qarashlari, qo’l xarakatlari lirik xolatini qo’rish mumkin.

Rangtasvir Kompozitsiya jixatidan o’ziga xos milliy koloritda ifoda etilgan. P. Benkov, A. Volkov qo’lida o’qigan B. Xamdamiy, I. Abdullaev, R. Temurov, R. Nasritdinov, A. Raximov, A. Toshkentboev, A. Roziqovlar, o’z ustozlarini yaxshi an’analarini davom ettirdilar, mazmun, goyalarni kengaytirdilar. Ayniqsa Samarkand rassomchilik bilim yurtini bitirgan I. Abdullaev dastlabki “Paxta terimi” (1931 yil) kartinasi bilan tomoshabin va san’tshunoslar fikrini qaratgan bo’lsa, keyinchalik etuk rassom sifatida murakkab Kompozitsiyasi asoslarini yaratdi.

Ayniqsa “Esh shoir xuzurida” kartinasida Kompozitsiya ustasi ekanligini tasdiqladi.

Yigit va qizlar esh shoirning sherlarini eshitmoqda. Zamonaviy xonada shoir gavdasi aniq tasviri Kompozitsiya markazini tashqil etadi.

Qo’lini qo’tarib tantanali xayajon bilan sher misralarini o’qimoqda.

Eshlarning bilimga chanqokligi, mexnatga mexr bilan intilishi ifodalangan.

Uning “Mulla To’ychi Toshmuxammedov” portreti, “Frontdan qaytish”, “Quruq er ovchilari”, M. Nabiev, S. Muxammedov, X. Raxmonovlar bilan xamkorlikda yaratilgan poyafzalchi “Ubay Raxmatullaev brigadasi” asari eng yaxshi san’at asari sifatida O’zbekiston Davlat san’at muzeyida saqlanmoqda. Yuqorida qayd etib o’tilgan rassomlar 50-yillarda Toshkentdagi Benkov nomli rassomchilik bilim yurtida eshlarga dars berdilar, rasm chizish va Kompozitsiya asari yaratishni o’rgatdilar.

40 – 50 yillarda shular bilan bir qatorda rassomlar eshlarga tasviriy san’at sirlarini o’rgatdilar. Maishiy janrda qo’plab asarlar yaratgan rassom N. Kashinadir. Uning “Doira cholaetgan qiz” (1945 yil) “Tushki tanaffuz” asarida insonni mexnat bilan barxaetligi, uni toza xavo, oftob nurlaridan tabiatdan zavqlanaetgani o’z aksini topgan.

Asar Kompozitsiyasi, rang koloriti, milliy ruxda, insonni zamonaviy xislatlari, Kompozitsiyani tuzib vositalari namoen bo’lgan. Eshlarga metodik tavsiya vazifasini bajaradi.

1947 – yili Ch. Axmarov, Toshkentdagi Navoiy nomli opera va balet teatri binosi foyesi devorida A. Navoiyning “Farxod va Shirin”, “Layli va Majnun” asariga bagishlangan maxobatli rangtasvir asarini ishladi. Asosiy mavzu afsona eki bo’lib o’tgan voqealar bo’lishiga qaramay, tipajlar, ularni aniq o’xshashligi, murakkab Kompozitsiya echimida topilgan.

Tasvirdagi odamlar xajmsiz aniq chiziqlarda va engil nozik ranglar tusida tasvirlangan.

“Monumental” panno mavzusida A. Navoiyining “Farxod va Shirin”, Etti guzal, Etti sayera, Iskandarnoma, Layli va Majnun, asosida “Farxod va Shirin”, Etti guzal, Etti sayera, Iskandarnoma, Layli va Majnun,” Iskandarning kurilishini kelib qo’rib Kompozitsiyaning asosiy negizini tashkil etadi. Shirin kanizaxlari bilan Farxodga nigox tashlab uni qilgan jasoratiga ta’zim qilayotgan vaqti

ifodalangan. Asarning muvaffaqiyatli chiqishida rassomning A. Navoiy dostonlarini yaxshi sinchiklab o'rganganligi kata yordam bergan. Bu asar uchun Ch. Axmarov 1948 yili "Davlat mukofoti"ga sazovor bo'lgan edi.

50 yillarda rassom Moskva, Kazan, Dnepropetrovsk, Kemerovo shaxarlarida asosan maxobatli – devoriy asarlar ustida ishladi.

1961 – yildan boshlab Ch. Axmarov ya'na O'zbekistonda ijod qila boshladi. "A'lochi qiz", "Raxima", "Balerina", Rassom "Temurov portreti", "Mukarrama Turgunboeva", "Zulfiya" qabi portretlarni yaratdi.

Ayniqsa shoira "Zulfiya" portretlarida nozir chizgilar bilan gavda va qo'l xolati, liboslar o'ziga xos go'zal xolatda ifodalangan.

Shoirning samimiyligi, yoqimtoy nigoxi chukur poetik ijod soxibu ekanligi sezilib turadi. Ch. Axmarov zamonaviy o'zbek ayolini ziyyo tarkatuvchi ma'naviy boyligini, ichki go'zalligi ochib bergan. Chingiz Axmarov qo'a yillar davomida K. Bexzod nomli Toshkent milliy rassomchilik va dizayn institutida kafedra mudiri, professor bo'lib ishladi.

Qo'plab o'zbek "Monumental"chi rassomlarni etishtirib chiqardi va o'ziga xos maxobatli Kompozitsiya san'ati maktabini yaradi, 1953 – yili repin nomdagi Leningrad, badiiy akademiyasi institutini R. Axmedov, N. Qo'ziboev, T. Oganosov, m. Saidov, V. Zelikov, muxina nomidagi oliy san'at bilim yurtini V. Smakin, V. Sosedovlar(1954-1955) yillar V. Shukurov nomidagi Moskva rassomchilik institutini Yu. Elizarovlar tamomlab yang kuch va ishtiyoq bilim san'at olamiga kirib kelishdi. Ijod bilan bir qatorda P. Benkov nomli rassomchilik bilim yurtida yoshlarga saboq berishdi.

Shu sababli o'sha yilari bilim yurtini bitirib o'quvchilarning turli nufuzli oliy badiiy o'quv yurtlariga kirib o'qishlariga zamin yaratildi.

Ular orasida yosh va iqtidorlisi N. Qo'ziboevdir. Uning Qoraqum xavzasiga bagishlangan "Qidiruvchilar" (1953) yil diplom ishi a'lo darajada ximoya qilinib,

DAK a'zolari va raisi oganson maktoviga sazovor bo'ldi va institut muzeyidan doimiy o'rin oldi.

O'zbek xalkning orzusi quruk erni ochishga otlangan xalqning shijoatli, gayrati N. Qo'ziboevning "Qidiruvchilar", "O'zboy o'zanida", kartinasida o'z aksini topgan.

Mazmun va Kompozitsiya jixatidan o'ta antiqa, zamonaviy bu asarda maxorat bilan, jazirama issiqda ishlayotgan matonatli kishilar obrazini tasvirlab berilgan.

Asar Kompozitsiyasida chodir yonidagi shijoatli odamlar, yuk ortilgan tuyalar, maxsus qidiruv ishlari jixozlari tasvirlangan. Inson kuch – kudrati bilan tabiiy ofatlarni engib, cho'lni – bogu – bo'stonga aylantirayotgan tasviri manzarasini guvoxi bo'lamiz. Rassom xaqikatni jozibali tasvirlangan.

Kompozitsiya jixatidan mavzu va ma'no bir – biriga juda mos boglangan. Cho'l oftobida toblangan yaratuvchi inson obrazi asarda eng muxim vositasidir.

1954 – yili Toshkent san'ati institutida rassomchilik fakulteti, 1955 – yilda nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetida "Badiiy grafika" fakulteti tashkil topdi.

Bu erda dastlab O. Tatevosyan, V. Podgurskiy, R. Axmedov, A. Krivonos, N. Qo'ziboev pedagogika institutida Yu. Elizarov, G. Oganosov, V. Yurovskiyalar tasviriy san'at asoslaridan yoshlarga dars berishdi.

Ayniqsa R. Axmedov tashabus qo'rsatib, qo'p mexnat qildi. Shijoatli, olov qalbi bu inson keyinchalik butun umrini O'zbekiston tasviriy san'at maktabini tashqil topib, rivojlanishiga bagishlanadi, samarali mexnati va ijodi uchun nufuzli davlat mukofotlari, oren medallariga sazovor bo'ldi.

Rossiya badiiy akademiyasi muxbir a'zosi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasini akademigi professor Raxim Axmedov institutda ijod



laboratoriyasini, tasviriy san'at bo'limlarini ochdi, keyinchalik aspirantura tashqil qildi.

Uning maqsadi yosh iqidorli rassomlarni tarbiyalab, o'qitish va O'zbekiston tasviriy san'atini rivojlantirishdan iborat edi.

Musavvirning "Ona o'ylari", "Tong", "Sora Axmedova" portreti, "Lola" portreti "Oqtoshga baxor", "Surxandaryolik ayol" asarlarida jozibali ranglar vositasida o'zbek xalqining o'tmishi, ichki dunyosini, xis tuygu, orzulari o'z ifodasini topgan.

Raxim Axmedov dastlab portret soxasida juda berilib ijod qildi. Zamondoshlarni betakror obrazini, mazmun goyalarni ifodalashda o'ziga xos badiiy til topdi. Portret yaratganda nafaqat uni tashqi qiyofasiga, ranglarni uygunligiga, balki uni chexrasidagi insoniy fazilatlarni ochib berishga intilardi.

Shuning uchun mexnatsevar xalqning milliy xususiyatlarini, o'zida mujassamlashtirgan ayollar, o'spirin – yoshlarni obrazini yaratishga qaratilgan edi.

## **II. Bob. Asarni moy bo'yoqda bajarish texnologiyasi**

### **2.1. Asarni moy bo'yoqda bajarish texnologiyasi**

Asarni rangda tasvirlash jarayoni o'z qonun qoidalariga ega. Ishning boshlanish qismida nimalar qilish, o'rtasida qaysi masalalarni xal etish va oxirlab qolganda uni qanday yakunlash kerakligini bilish zarurdir.

Umumiy tus va rang xolatlari va natura bo'yoqlarning bir-birga yaqinligidagi tus va rang munosabatlarini topa bilish;

- Katta rang-tusli munosabatlar chegarasidagi rang-tuslarning «cho'zilishi», aloxida buyumlarning xajmi shakillarining batafsil rangli qayta ishlanishi;
- Butun tasvirning umumiyligi, yaxlitligi xamda kompozitsiya markazini ko'rsata bilish. Bu masalalarning xar biri nima bilan yakunlanishi ketma-ketlikda ko'rib chiqamiz.

Tasvirlashning to'liq rangtasviri qurilishi, asosiy qismlari oralig'idagi tus va ranglar munosabatining aniq va to'g'ri ko'rsatilishi bilan aniqlanadi. Manzarada – osmon oralig'dagi yer yuzasi va daryodagi suv, tarixiy obida oldingi, o'rta va orqa oraliqdagi ko'rinishlardir. Agarda bu asosiy rang-tuslar munosabati (farqlari) «etyud»da noto'g'ri tasvirlansa, manzaradagi obektlar yoki buyumlar shaklidagi rang tuslari, reflekslar va jism bo'laklari ustida xar qancha berilib ishlanmasin, yuqori saviyali mukammal rangtasvirga erishib bo'lmaydi. Qalamtasvirni ishlashda xam taxliliy bajariladi: dastlab «konstruktiv»-ichki qurilishi, nisbatlari, yaxlit umumiy shakl topiladi. Rassom shunday sharoitda aslo bu masaladan chekinmaydi, tasvirni umumiy va yaxlit ko'radi. H.H.Ge bejiz rassomlarni ogoxlantirmaydi: «Tasvir»dagi bosh qismlarni belgilab, nisbatlarni tekshirish uchun darxol asosiy soya va yorug'likni umumiy sinchiklab o'rganib chiqing va har doim, har vaqt tasvirni boshidan oxirigacha umumlashtirgan holda chizing xamda mayda bo'laklarga oxista kirishing. “Mana sizlarga chizishning siri”.

Rangtasvirda xam, ish boshlashdan avval umumiy rang munosabatlarini diqqat bilan o'rganib chiqish lozim. Shuning uchun bu masalaga 5-10 minut vaqt sarflab, umumiy rang munosabatlarini tushunish kerak: eng och va eng to'q (zich)

dog' qaerda, tusi va rang kuchi bo'yicha asosiy farqlar (to'yinganligi) qanday ekanligini topish kerak. Masalan, sariq olmalar fondagi sariq tarihiy obida bilan solishtirilsa, olmalar ochroq ularning sariq tusi sariq obidaning gishtiga nisbatan yorqinroq (to'yingan)ko'rinadi. Rangning uch xil o'ziga xosligi bo'yicha asosiy rang xususiyatligi mavjud. Ob'yektdagi umumiylikni topilishi rasomni ikkinchi darajali belgilar uning qayday bo'laklarga, koloritli masalaga mustasno xolda e'tibor berishdan, umumiy tus va rang xolatini, asosiy tus va rang munosabatlarini paydo qilishdan chalg'itishga xarakat qiladi. Shunday qilib ranglar qonuniyatlarida xam, asosiga echiladi, etyudning keyingi mayda detalli ishlariga poydevor yaratiladi.

Rang munosabatlarini eng avvalo och va intensiv ranglarni qidirishdan boshlash kerak, so'ng eng to'qini topib, qolganlarini esa shularga nisbatan aniqlash ma'qul. Keyingi tushlarga biroz to'qroq va biroz intensiv bo'lganlar va boshqalar kirasdi. Murakkab kulrang tushlar oxirida beriladi. Dastlabki va yakunlovchi tushlarni har doim ham eng och va eng to'q hamda to'yingan qilib olinmaydi. Qo'yilmadagi eng och joy har doim ham oq bo'lavermaydi, eng to'q joy esa qora bo'lmaydi. Kuchli to'yingan yorqin ranglar ham kamdan-kam uchraydi. Hattoki bahorgi o't - o'lanlarni tasvirlashda juda ehtiyotkor bo'lish lozim. Uning yorqinligini shunday kuchaytirib tasvirlash mumkinki, natijada u o'zining tabiiy ko'rinishidan boshqacha bo'lib chiqib qoladi. Shuning uchun ishga kirishishdan avval umumiy tus va ranglar kuchini aniqlab olish kerak: munosabatlarni qanday bo'yoqlar yig'indisida bajarish – och yoki to'q, yorqinlikning (to'yinganlik) qanday chegarasida bo'lishini ham aniqlash muhim. Qisqa qilib aytganda, umumiy tus va rang holatini bilish kerak. Bunday holatni saqlab qolish uchun balki ranglar munosabatini chegaralangan bo'yoqlarda tasvirlashga to'g'ri keladi. Ishni eng och, to'q va yorqin tushlardan boshlaganda politradagi barcha ranglardan, shu bilan birga eng yorqin va keskin bo'yoqlardan foydalanish shart emas. Yorug'-soya va rang munosabatlarini aniqlashda umumiydan hususiyga qarab berish lozim. Avvalo asosiy ob'ekt oralig'idagi tus farqlarini topish muhim.

Manzarani tasvirlashda avvalo osmon va yerning alohida jismlarini bir-biriga va ularning yaxlitligida bo‘lgan rang munosabatlarida aniqlash kerak. Inson qomati tasviri yoki portret ham xuddi shu tariqa bajariladi. Rassomlarning amaliy tajribasida shunday jumlar mavjud : “katta yorug‘lik” , “katta soya” , “katta shakl” , “katta ranglar munosabati”. Bulardan maqsad ob‘ektini yaxlit ko‘rish va ularni barqaror qilib tasvirlashdir. Tasvirni yaxlit idrok etganda, yorug‘lik tikka ta’sir etayotgan joydagi narsalar yagona bir qismni tashkil etadi va undagi dog‘lar kuchliligi bo‘yicha soya qismdagiga teng kela olmaydi. Xuddi shularni shaxsiy va tushayotgan soyalarga moslash mumkin: ular tus bo‘yicha yarimsoya bilan yaxshi chiqishadi, yarimsoya esa tasvirning yorug‘lik qismlaridagi kuchga teng kela olmaydi. Soyadagi refleks yarimsoyadan och bo‘la olmaydi, ammo shaxsiy soyaning umumiy tusiga bo‘ysunadi. Ob‘ektdagi ushbu katta shakllar yoki buyumlar guruhi tusi va rangining to‘g‘ri saqlanishi tasvirga yaxlitlik va yoritilishining to‘g‘ri bo‘lishiga turtki bo‘ladi. Umumiy ranglar munosabati va navbatdagi ishning davomi hos koloritini hisobga olgan holda borishi kerak. Tajribasiz rassomlar u yoki bu ranglavha etyudini, manzarani yoki portretni tasvirlayotganda har doim ham undagi yaxlitlik va bo‘yoqlar birligini muvaffaqiyatli bajara olishmaydi. Ishlash jarayonida har bir aniq holatda koloritni tushunib yetish, tusli va rangli holat xususiyatini ko‘rsata bilishlari zarur. Hamma gap bo‘yoqlaridagi umumiy tus, rang holati va kolorit birligini ko‘rish va tushunib yetishdadir.

Yirik plandagi tus munosabatlarini aniqlab olgandan so‘ng, yorug-soya qismlarini modellashtirishga ya’ni, har bir buyumning yorug-soyasi, yarim soya, shaxsiy hamda tushayotgan soylarini topgan holda xajmli shaklini rang-barang qilib tasvirlashga o‘tish mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, buyumlarning ustki qismi ham rang-tusi bo‘yicha, ham yorug‘ligi bo‘yicha, ham to‘yinganligi bo‘yicha ham tushayotgan yorug‘lik nurining oraliq masofasiga, sinadi, burchagiga hamda atrofida o‘rab turgan reflekslariga va kontrast munosabatlariga bog‘liq holda o‘zgaradi. Yorug‘likka, yarim soyaga yoki soyaga yonma-yon turgan qandaydir ikkita yuz jismlaridagi narsalarda bir xil yoritilish sharoiti mavjud emas. Barcha

qismini palitrada topilgan rang bilan unga och yoki to‘q rangni qo‘shib ishlash mumkin emas. Har bir bo‘lagi uchun yangi va yana yangi bo‘yoq qorishmalarini topish kerak. Odatda lokal rangi yarim soyada sezilarliroq, chunki yarim soya yorug‘lik manbaining asosiy va aks etayotgan tomonlaridan ancha sust ta’sir etadi. Xajmli shaklini jozibadorligi va natura qo‘yilmasining yaxlitligini to‘g‘ri anglash uchun, issiq tuslar bilan yonma-yon aralash kontrast kuchida inson ko‘zi sovuq rangni ko‘radi. Bir rang boshqasiga qo‘shimcha bo‘lgan rangni his qiladi. Buning natijasida sovuq ranglarga issiq ranglar hamisha yo‘ldoshdir. Agar biz buyumning sirtida zarg‘aldoq rangni ko‘rsak, yonida esa albatta havo rangni sezamiz.

Issiq va sovuq tuslar tasvir ohangdorligini oshiradi, tabiiy ko‘rinishni naomyon etadi. Katta shaklini modellashtirayotib, mayda bo‘laklarni chiza turib, shuni yodda tutish kerakki, katta shaklning ham yoritilgan, ham soyadagi yuzasida joylashgan ko‘plab kichik shakllarda aniqlanadigan tusni oshirib yubormaslik kerak. Yorug‘likda yoki soyada joylashgan mayda shakl tuslarining yaqinligini ilg‘ab olish uchun, ish jarayonida atrof - muhitga bog‘liq bo‘lmagan buyumlarga e’tibor berish shart emas. Aytib o‘tganimizdek, buyumlarni yaxlit ko‘rib, doimo ularni o‘zaro solishtirib turish zarur. Buyumning och qismini tasvirlay turib, qaysi nuqtada u yorug‘ligi va rangining eng quyuqligi va qaerda kuchliroq namoyon bo‘lishini, so‘ngra esa xajmli shaklning qolgan qismida topilgan tus bilan taqqoslab aniqlash kerak. Eslatib o‘tamiz, ranglarni uch xususiyat bo‘yicha taqqoslaymiz: yorug‘ligi, rang tusi va to‘yinganligi. Agar biror bir rang yorug‘ligi bo‘yicha to‘g‘ri topilib, boshqa xususiyatlari aniq bo‘lmasa, bu rangni to‘g‘ri deb bo‘lmaydi – munosabatlar rang tusi va to‘yinganligi bo‘yicha ham aniqlangan bo‘lishi kerak. Solishtirib, o‘xshashligini yoki ularning orasidagi farqlarini aniqlash shunday holatda yengillashadiki, agar havo rang buyumni boshqa bir tusi o‘zgacharoq buyum bilan solishtirsak. Bunday taqqoslash bizni sinchiklab qarashimizni charxlaydi hamda ulardagi rang tusini aniq ko‘rishga ko‘mak beradi.

Buyumlarni ranggi bo‘yicha taqqoslashda yana bir holatni hisobga olish zarur. Ketma-ketlikdakni rang kontrasti tufayli, kulrangning nozik tusi uni nima bilan qiyoslashimizga bog‘liq bo‘lib, goh issiq, goh sovuq bo‘lgan holda tuyuladi.

Agar kulrangni qizil rang bilan solishtirsak, u sovuq tusda, havo rang bilan taqqoslasak, issiq tusda ko‘rinadi. Shu sababli buyumning nozik tusini aniqlashda xolis rangni xolis bilan, issiqni issiq bilan, sovuqni sovuq bilan, och rangni och bilan, to‘q rangni to‘q bilan o‘zaro solishtirish kerak. Tasvirlanayotgan ob’ektning nafaqat asosiy yuqorida qayd etilgan rangning uchta xususiyati bo‘yicha, balki tashqi ko‘rinishining aniqligi bo‘yicha ham taqqoslash zarur. Tasvirlanayotgan buyumlarning chegarasi hamma joyda ham bir xil aniq ko‘rinmaydi. Bir xil joyda buyumning silueti yaxshi ko‘rinadi, boshqa joyda esa fon bilan birikib ketadi. Tushayotgan soyalar chegarasi ham barcha yerda bir xil ko‘rinmaydi. Ish jarayonida doimo munosabatlar bilan fikrlash kerak: matoda tasvirlanayotgan bir necha buyumlarni xuddi shu guruh bilan qiyoslab borish maqsadga muvofiq. Faraz qilamiz, birinchi ko‘rinishdagi guruhining ranglari ikkinchi ko‘rinishdagi rangiga nisbatan juda ham yorqin va to‘q tusdadir. Ularning bu farqlarini sezgach, palitrada ranglarni alohida bitta, bitta emas, balki birdaniga bir necha rangni munosabatlarda tanlash zarurdir.

Havaskor rassom manzara lavhani tasvirlayotganda old ko‘rinishidan boshlashi ma’qul. Agar rang qatlamlarini orqa ko‘rinishdan qo‘ya boshlasa, uning rang va tus kuchlarini oshirib yuborib, birinchi ko‘rinishni bo‘rttirib ko‘rsatishga bo‘yoqlarning kuchi yetmaydi.

Matoning to‘liq yuzasi bo‘yoqlar bilan butkul qoplanib, munosabatlar to‘g‘ri olinmaguncha haqiqiy jarangdor bo‘yoqlarni, yorug‘lik kuchini va tasvirlanayotgan buyumlar moddiylikini his qilib bo‘lmaydi. Palitradagi yorqin bo‘yoq - hali matodagi yorqin tus emas. Buyumlarning yoritilishi va materialligi munosabatlarning to‘g‘ri olinishiga bog‘liq, aks holda yon tarafdagi tuslar to‘g‘ri topilmasa, qaysidir bir rangning jarangdorligiga erishib bo‘lmaydi.

Rangtasvir ishlash jarayonida ranglar munosabatini to‘g‘ri aniqlash bilan birga, shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, biz faqat oddiy rang dog‘lari bilan emas, balki aniq bir shakl ustida ham ish olib borayapmiz. Ranglar munosabatini izlashdan maqsad, to‘g‘ri topilgan rang tuslari bilan, uning xajmli shaklini to‘g‘ri

topish demakdir. Agar rang fazoviy joylashuvi, materialligi va aniq shaklini ifoda etmas ekan, u tasvirda o'z ma'nosini yo'qotadi. Och va to'q, rangli va rangsiz bo'yoq surtmalari ma'lum bir buyum shakliga va ob'ektga tegishli bo'lsagina, materiallik, ranglar uyg'unligi va koloritni yaratadi.

Manzaraning fazoviy kengligini masalan, faqat havo perespektivasi tufayli ranglar o'zgarishini ko'rsatib beruvchi rangli dog'lar emas, balki yer yuzasida joylashgan narsalar va ob'ektlar: daraxtlar, qurilishlar, to'g'ri to'rtburchakli va notekis maydonlarni o'lchamlari va chiziqlar aniqligi ranglarda o'zgarib, manzaraning fazoviy uzoqlashishini yaratadi. Obidalarni, masalan, ikkinchi va olis ko'rinishda umumiy rang dog'larida ifoda etish mumkin emas. Rang bilan ularning rel'efini va o'simliklar tuzilishini tasvirlash kerak.

Ishning yakunida tarixiy manzaraning u yoki bu joylari kerakli yorqinlikni olmay qolgan bo'lishi mumkin yoki aksincha, haddan tashqari tusi va ranggi bo'yicha kuchli, umumiy rang tusidan "ajralib" ko'rinishi mumkin. Yoritilgan joylar tusi bo'yicha o'ta keskin bo'lib, qog'oz yoki mato yuzasidan "chiqib" ketishi mumkin. Ba'zan soyali joylar sezilarli mayda detallarga ega bo'lib, maydalashib ko'rinadi. Bu holatlarning hammasidan ham umumlashtirish masalasi hal etiladi: mayda bo'laklarning keskin chegaralari mayinlashtiriladi, rangdorligi kuchaytiriladi yoki xiralashtiriladi, keskin tuslar ochlashtiriladi yoki to'qlashtiriladi.

Umumlashtirish bosqichida ishning yaxlitligicha qarash, hamma narsani birdaniga ko'rish ya'ni "tikilib qarash" kerak. Ob'ektlarning barchasi tarqoq bo'lib tuyuladi, ammo shu paytda tus munosabatlarini, yaxlitligini tezroq tushunish mumkin. Navbatma-navbat naturaga ham, etyudga ham yaxlit qarash kerak, shunda qayerda qanday xatoga yo'l qo'yilganligini ilg'ab olish mumkin. Butunligicha, yaxlitligicha ko'ra olish qobiliyati, ishni umumiydan xususiyga qarab va undan yana umumlashtirishga tomon boriladi. Ish jarayonida yaxlit ko'rish – rangtasvirda ishlash mahoratining asosidir. Faqatgina shu malakaga ega bo'lgan rassom, obrazli ko'ripnishini to'g'ri ifoda etishi, undagi asosiy va har bir

bo'lakning o'z o'rnini topishini, ishning yakuniy darajasini hamda kompozitsiyaviy markazga bo'ysundirishni samarali bajara oladi.

Tasvirdagi qismlar yig'indisi yaxlitga teng emas, chunki yaxlitlik – bu qismlar yig'indisiga birlik, shu qismlarning bir-biriga bo'ysunganligi va jamlanganligi hisoblanadi. Akademik Ye.A.Kibrik tasvirlashning yaxlitligi haqida shunday yozgan: *“Yaxlitlik qonuniga bo'ysunmasdan turib, naturadan na qalamda, na rangda tasvirlash mumkin emas. Shakl ham, rang ham o'z-o'zidan mavjud bo'lmaydi, faqat yaxlitlik qismi kabi yaxlitlikka nisbatan bo'ladi”*.

Shu o'rinda har bir bo'lajak rassom yoki tasviriy san'atni o'rganuvchi tasvirlash jarayonini narsani o'ziga qarab chizishdan boshlashi, bundan ko'proq foydalanishi lozimligi hamda ushbu usul tasavvur qilish qobiliyatini o'stirishda samarali natijalarga olib kelishi haqida alohida to'xtalib o'tmoqchimiz.



## **2.2. Kartinada asosiy rang munosabatlarni idroq qilish va tasvirlash**

Xar qanday tasvir mayda qismlardan emas, yaxlitlikdan boshlanadi. Dastlab katta umumiy shakl topiladi. Keyin esa mayda bo'laklari ishlanadi. Shu munosabat bilan tasvirlash jaraeni qoidasi mavjud umumiydan mayda bo'laklarga bu yana umumlashtirishga. Tarixiy manzara etyudini ishlash yaxlit asosiy munosabatlarni qo'rishdan manzaraning asosiy ob'ektlari (tarixiy ob'ekt, osmon, er, suv, old o'rta va olisdagi qo'rinishlari bilan) asaridagi rang farqlaridan boshlanadi. Manzaraning ob'ektlaridagi asosiy munosabatlarni to'g'ri olinishi keyingi rang qurilish, mayda bo'laklarni tasvirlashda ishni osonlashtiradi. Agarda asosiy rang munosabatlari noto'g'ri topilgan bo'lsa, reflekslar va ranglardagi nozik farqlar, mayda qismlarni qanchalik sinchiklab (astoydil) bajarilmasin, mazmunli tasvir xosil bo'lmaydi. Plenerda boshlangich ishlar jaraenida kichik etyudlar (15\*10 sm.) bajarish zarur. Manzaradagi keskin kontrastlar (tusli va rangdorlik) qo'rish taasurotlari bo'yicha taqqoslanadi. Birinchi navbatda old qo'rinishi munosabatlari oldidagi nisbati aniqlashtiradi. Ish bo'yicha kichik o'lchamdagi etyudlarda maydalangan qismlarni idroq etish mumkin emas. Esh rassom naturani aynan "qo'chirmasdan", balki yaxlit rang munosabatlarida tasvirlaydi.

Tus va rang munosabatlari metodi bilan etyudni bajarish aslida ochiq, intensiv va rang doglarni aniqlashdan boshalanadi. Ular oraliqdagi tus va rang doglarini kuchli jixatdan taqqoslanadi. Manzarada, masalan, quyosh nuri bilan eritilgan yashil balandlik eng erug va rang bo'yicha yorquin bo'lishi, toq tusda esa old qo'rinish.

Manzaraning umumiy rang munosabatlarini topish maksadida talaba vazifani yetarli darajada savodli uddalay olmasa qisqa vaqtli etyudlarni qo'p marta takrorlash zarur. Dastlab tasvirlash uchun uncha murakkab bo'lmagan yopiq kenglikni (masalan qisman xovli o'yni va xokazo), ob'ektlar bo'lib xizmat qilishi mumkin. Keyin vazifani biroz murakkablashtirib, bir necha ko'rinishda (old, o'rta va uzoq) ega bo'lgan ochiq kenglikdagi manzarani tanlash zarur. Bu etyudlarda esa e'tiborni xavoiiy perspektivaga, osmon rangi, manzaraning barcha ob'ektlarini

noziq farqlari bo'yicha och – to'qligi va to'yingan ranglarining o'zgarishlariga qaratish kerak. Ularni barovar idroq qilishda manzarani barcha qo'rinishlarini taqqoslash yo'li bilan sezish mumkin.

Masalan, old qo'rinishdagi daryo qirgogini ikkinchi va yiroqdagi qo'rinishlari bilan bir vaqt o'zida osmonning suvdagi aksi bilan xam qiyoslanadi. Etyudning ranglar munosabatlari yaxlit belgilanmaguncha uning bir qismini tugatish mumkin emas. Xar bir etyud 30 daqiqadan 1 soatgacha davom etadi.

### **Eritilishning umumiy va rangli xolati.**

Tarixiy manzara etyudida yechiladigan muxim vazifa – turli ob – xavoda, kunning istagan vaqtini, yoritilgan xolatini tasvirlardilar. Professional tilda buni umumiy tus va rang xolatini qo'rsatishga aytiladi. Xoxlagan etyudning rang qatori faqat narsalarning ranglaridagi tus va rang munosabatlariga mos bo'lmasligi kerak. Etyudning rang farqlari albatta naturaning eritilgan xolatini xisobga olib qurilishi kerak.

Bulutli kunda qo'katlar rangi ancha quruq (qoramtir) va kam to'yingan bo'ladi. Xamma narsalar to'qlashadi, qizil, zargaldoq va sariq ranglar to'yinganligi jixatdan xiralashadi, yashil bilan zangori rang esa faollashadi. Shuning uchun bunday xolatlarni xisobga olmasdan manzarani tasvirlab bo'lmaydi. Kunning istalgan vaqtida yoki turli ob – xavo sharoitida tasvirlangan etyudlar, umumiy tus va rang jixatdan bir – biridan farq qilishni lozim.

“Manzarada” – deydi R. Falq, - asosiysi xavoiiy muxitning rangli xolatidir”.

Manzara etyudining yoritilish xolatini o'rganish uchun bulutli, quyoshli kunda, yoz va qish aynan bir mavzuni bajarish juda foydali. Qator bajarilgan etyudlarni solishtirib, manzaraning turli xolatini jozibali xususiyatlarini sezish mumkin barcha etyudlarda eng yorqin va ravshan doglar palitraning yorqin to'yingan bo'yoqlarida tasvirlangan.

## **Manzara ob'ektlarida kolorit birligi va eritilish rangi.**

Manzarani munosabatlar metodi bilan tasvirlash jarayonida yosh rassom tabiatning xaqiqiy bo'yoqlarini tushunishga ularning asl rangini umumiy tusi bilan mosligini qo'rishda birdaniga erishmaydi. Tabiatdagi bo'eknlarni noto'gri taxlil etish natijasida rassom rang va tus munosabatlarini adashtirib etyudni jozibali chiqishiga erisha olmaydi. Ayniqsa tajribasiz rassom eritilishining umumiy rangi ta'sirida o'zgargan ranglarni yaxshi sezmaydi.

Ertalabki kuyosh barcha narsalarga va manzara ob'ektlariga pushti – sariq nozik rangni, kunduzgi kuesh esa – oltinsimon, kechkurungisi – tog sariq eki qizil rangni baxsh etadi. Tungi oy yorugligi narsalar rangini qo'kimtir yashil tomonga o'zgartiradi. Elektr chirogida narsalar och – to'q sariqni, sham esa – to'q sariq bo'eqni xad'ya etadi. Demak, eritlitishning manbai ta'sirida bo'ladi.

Yoppasiga bulutlar quyuni bilan qoplanib erugligi tarqatilgan osmonga narsaning shaxsiy rangi – qo'proq namoen bo'ladi. Bulutli kunning engil tekis yorugligi narsalarning shaxsiy ranglaridagi xarakter va xususiyatlarini aniqlashga imkon tugdiradi.

Manzaraning turli yoritilganlik xolatdagi etyudlarni bajarish uchun bulutsiz qeshli kun, bulutli osmondagi quyosh yorugligi, kunbotar vaqt, bulutli kun, qosh – qoraygan paytlarni tanlash mumkin.

## **Asarni moy bo'yoqda bajarish texnologiyasi**

Mazmun jixatdan ancha murakkab va uzoq davomli manzara etyudlarini ishlashga o'tishdan oldin, naturaning umumiy ranglar munosabatini tasvirlashga bizga vaqti etyudlarni bajarish bilan, masalan, arralangan daraxt tanasining bir bo'ladi eki bir necha toshlar, osmondagi bulutlar to'plami kabilarni ishlash zarur. Ranglar dogi o'z o'zidan narsa eki ob'ektning aniq shakllarisiz kerakli tasvirdan boshqa xech narsani ifodalamaydi.

“Tabiatni to’laqonli tasvirlash va uning go’zalligini qo’rsatish uchun – deydi G. Russo – daraxtlar erda mustaxkam tuzishi, ularning shoxlari esa oldinga intilishi qolgan qismi polotno ichida kirib ketgandek tuyulishi, xuddi tomoshabin daraxtni atrofida aylanib o’ta oladiganday tasavvur qilishi kerak. Xar bir bo’eq surtmasi shunchaki yuzaki qo’yilmasdan, xar bir surtma yaxlit bo’lishi va biron – bir narsani aniq ifodalashi kerak”.

Etyudda aniq ob’ektlarni tasvirlash ichki naturadagi manzara va muxit detallaridagi asosiy rang munosabatlarini aniqlashdan boshlanadi. Keyin esa ob’ekt shakli, uning xajmi va xokazo astoydil ishlab chiqiladi. Bularning xammasi eritilishi umumiy kolorit xolatini to’gri xisobga olib rang bilan xal qilinadi.

Manzarani tasvirlashda tabiatni sinchiklab o’rganishni talab qiladi. Xar bir daraxt aloxida o’zining xarakterli tuzilishiga ega.

Tabiatni turli xolatlarida, qo’katlar bilan butalar xam xar – xil daraxt turlarini xarakterli xususiyatlarini rang bilan tasvirlashni o’rganish uchun naturadan juda qo’p etyudlar bajarish kerak. Manzaraning ob’ektlarini bo’eqlar orqali tasvirlash bilan barobarida qalam bilan ularning murakkab shaklini chizish xam zarur.

Manzarani aloxida ob’ektlarini va mayda bo’lak ishlanmalarida qaratilagn mashqlarni bajarish bilan bir qatorda ochiq xavoda natyurmortlar bajarishga yaxshi bo’ladi. Yashil yaproqlar va qo’k osmon – bu ikki rang natyurmortning barcha ranglarni belgilaydi. Bunday natyurmortga misol tariqasida A.A. Plastovning “Yoz” kartinasini qo’rish mumkin.

Bulutli ob – xavoda koloritni xarakterli xolatini A.A. Plastovning “O’rim” kartinasining natyurmort qismida qo’rish mumkin. Kartinadagi voqea bulutlar bilan qoplangan tush vaqtida sodir bo’lgan. Ishning erug – soyasi bir – biridan kam farqlanadi. Kechki yoritish xolatidagi rangtasviri misolida rassomni boshqa “Traktorchilarning kechki ovqati” asarida qo’rish mumkin. Narsalarning yoritilgan qizil, to’q sariq ranglar bilan, soyali esa quyyuk toq ranglarda tasvirlangan.

Kartinada keskin ranglar gammasi o'yini yaratilgan bo'lib, asar nixoyatda jozibali yaratilgan.

### **Manzarada kenglik.**

Manzarali rangtasvirning keyingi bosqichida qo'p seansli davomli etyud mashqlari bo'lib, ilgari o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni eslash, amaliy qo'nikmalarni qo'llash xamda yangiliklarini o'zlashtirish kerak.

Uzoq vaqtli etyudlarda shakllar puxta ishlanishi bilan farqlanishi kerak. Ularni bajarish vaqti 2-4 soatdan (bir seansli) bir necha o'n soatgacha (qo'p seansli), davom etishi mumkin. Qo'p seansli etyud qeshda xam, bulutli ob – xavoda xam belgilangan bir vaqtida bajarilishi lozim.

Manzara mazmuni uning xayotiy mavzusi naturaning yaxlit qo'rinishi plastik – kompozitsiya munosabatlarida xam, koloritda xam asosiy aniqlash kompozitsiyaning ajralmas qismidir. Shuning uchun davomli etyud bajarish jaraenida kompozitsiya syujetini puxta o'ylash, taxlil etish va uni tasvirlash muximdir. Tasvirlash tekisligida ob'ektlar va narsalar joylashuvini mukammal tasavvur qilish zarur. Tarixiy manzara ob'ektiga yaqinlashib eki uzoqlashib joyni xususiyatlarini o'rganish, qo'rish nuqtasini topish mumkin. Kompozitsiyada osmon bilan er va boshqa ob'ektlar orasidagi munosabatlarni aniqlash juda xam muximdir.

Ma'lumki narsalar katta masofada xajmliligini, relefligini yoqotib siluetli tekislik xarakteriga ega bo'ladi. Old qo'rinishdagi narsalar ancha xajmli, soya-erugi kontrast bo'lib qo'rinadi. Yaqinda joylashgan yashil dala masofa uzoqlashgan sari yashil rangdor bo'egi asta – sekin moviyga o'tadi. Olisdagi to'q narsalar ochroq va qo'kintir bo'lib qo'rinadi. Quyosh nurida bulutlar va uzoqdagi qorli tog cho'qqilari xam qizil to'q sariq ranglarda kiradi.

Tuman, chang yoqi tutun bilan to'yingan fazoda narsalarning siluet aniqligi pasayadi. Toza xavoda masofadagi shaklning aniq tashqi qo'rinishi ozgina o'zgaradi.

Old qo'rinishlarni tasvirlashda narsalarning shaxsiy ranglari uzoqdagilarda esa shartli ranglar narsalarni uzoqlashtiradi va aksincha, narsalarning rangi ularni xuddi old ko'rinishda biron – bir narsani “Yaqinlashtirish zaruriyatini bo'lsa ancha lokallik (narsa) moxiyatini rangga qaratish lozim”. Etyudning qandaydir qismini “uzoqlashtirish” zaruriyati tugilsa unda shartli ranglarni qo'llash qifoyya.

Uzoq qo'rinishdagi och – to'qligi va rang tusini to'gri aniqlash uchun xammasini yaxlit qo'rib mayda qismlarga e'tibor bermasdan qarash muximdir. Faqat shundagina old va o'rta va olis qo'rinishdagi rang farqlarini to'gri aniqlab tasvirlash mumkin.

“Xavoni tasvirlashda, - deydi A.A. Deyneka – ayniqsa old qo'rinishni uzoqdagiga nisbatan munosabatlarni aniqlab va to'gri etkazishi muximdir, shundaygina rangtasvir o'z echimini topadi, asarda xavoiiy muxit xolatini to'gri tasvirlashga erishadi”.

Plener rangtasvirining boshlangich ta'lim bosqichida qisqa vaqtli va ijod davomli etyudlar bajariladi.

Keyinchalik esa manzara etyudlari ishlash jaraenida tabiatning nozik xolatini tasvirlashga xarakat qilish zarur.

Tasvirlash mobaynida rassom tabiatni nozik o'zgarishlarini kuzatar ekan o'z xissietini bo'lajak asarda qo'rsatishga xarakat qiladi.

Demak, naturada asosiy rang doglarni umummiy va katta rang munosabatlarini tugri topish va moxirona tasvirlay olish rangtasvirining muxim asosidir. Shular asosda manzara ob'ektlarining mayda bo'laklarining nozik farqlanishlari amalga oshiriladi. Tabiat bo'eqlari xaddan tashqari rang – barang o't – qo'kat va daraxtlar yashil rangda. Lekin tabiatdagi bu ranglar turli – tuman tushlarga ega. O'tloqda o'saetgan maysalar, kuzgi bugdoy ekinlari, sabzavotlar, daraxtlarni xar xil turlari xammasi xam o'ziga xos yashil rangdagi tusda ega. Tabiat o'ta nozik, ana shu o'ziga xos xususiyatlarni manzara etyudida tasvirlay olish rassomdan juda katta bilim, malaka va tinmay izlanishni talab etadi.

### **2.3. O'zbekiston mashhur rassomlari**

#### **Alisher Mirzaev-O'zbekiston Xalq rassomi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Akademigi, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi**

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tomonidan Toshkent Fotosuratlar uyi bilan hamkorlikda O'zbekiston Xalq rassomi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Akademigi, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi Alisher Mirzaev bilan "Zamonaviy milliy rangtasvir muammolari va istiqbollari" mavzuida ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbirda O'zbekiston xalq rassom, O'zbekiston Davlat mukofoti lauriyati, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi raisi, Akademik Akmal Vahobjonovich Nuriddinov, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti rektori Xasan Rashidovich Aminov, Falsafa fanlari doktori, professor Tilab Mahmudov hamda institut va Toshkent Fotosuratlar uyi rahbariyati, akademiklar, institut professor-o'qituvchilari va talabalari ishtirok etishdi.

Alisher Mirzaevning milliy rangtasvir yo'nalishidagi ijodida milliy an'analarning tarannumi o'z aksini topgan. Qolaversa, ranglarning tanlanishi tomoshabinni voqealikka teran ko'z bilan qarashga undaydi. Tarixiy qadriyat, o'tmish va bugunning uygunlashuvi, ajdodlar va avlodlar silsilasidagi chizgilar, obod-axloq tamoyillari ijodkor asarlarida yorqin ifodalangan. So'zga chiqqan barcha ijodkor ahli Alisher Mirzaevning ijodiy faoliyati zamonaviy milliy rangtasvirning rivojlanishidagi o'rniga alohida to'xtalib o'tishdi.

Ma'lumki, O'zbekiston Xalq rassomi Alisher Mirzaev sharq milliy rangtasvir san'ati xususan, milliy rangtasvir usul va uslublari o'ziga xos xususiyatlarining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Tadbirda milliy rangtasvir san'atining mavjud muammolari xususida to'htalib, ularni bartaraf etish yuzasidan, shuningdek, istiqboli borasida o'z fikr va mulohazalarini bildirdi. Tadbirdan ko'zlangan maqsad shu bo'ldiki, ustoz-shogird an'alarini yanada rivojlantirish, zamonaviy milliy rangtasvir, uning ijodkorlari ijodida milliy an'analarga tayangan holda yangi

uslubiy va vositalarni shakllantirishdir. Shu ma'noda, talaba yoshlarga ustoz ijodkor Alisher Mirzaev ijodi orqali Zamonaviy milliy rangtasvir muammolari va istiqbollari borasida tushunchalar berildi. Tadbir so'ngida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

2013 yil 6 fevral kuni soat 11:00da Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tomonidan Toshkent Fotosuratlar uyi bilan hamkorlikda O'zbekiston Xalq rassomi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Akademigi, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi Alisher Mirzaev bilan "Zamonaviy milliy rangtasvir muammolari va istiqbollari" mavzuida ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbirda O'zbekiston halq rassomi, O'zbekiston Davlat mukofoti lauriyati, Badiiy Akademiya raisi, Akademik Akmal Vahobjonovich Nuriddinov, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti rektori Xasan Rashidovich Aminov, Falsafa fanlari doktori, professor Tilab Maxmudov hamda institut hamda Toshkent Fotosuratlar uyi rahbariyati, akademiklar, institut professor-o'qituvchilari va talabalari ishtirok etishdi. So'zga chiqqan barcha ijodkor ahli Alisher Mirzaevning ijodiy faoliyati zamonaviy milliy rangtasvirning rivojlanishidagi o'rniga alohida to'xtalib o'tishdi.

O'zbekiston Xalq rassomi Alisher Mirzaev sharq milliy rangtasvir san'ati xususan, milliy rangtasvir usul va uslublarining bugungi holati, mavjud muammolari xususida to'xtalib, ularni bartaraf etish yuzasidan, shuningdek, istiqboli borasida o'z fikr va mulohazalarini bildirdi.

Alisher Mirzaevning milliy rangtasvir yo'nalishidagi ijodida milliy an'analarning tarannumi o'z aksini topgan. Qolaversa, ranglarning tanlanishi tomoshabinni voqelikka teran ko'z bilan qarashga undaydi. Tarixiy qadriyat, o'tmish va bugunning uygunlashuvi, ajdodlar va avlodlar silsilasidagi chizgilar, odob-axloq tamoyillari ijodkor asarlarida yorqin ifodalangan. Tadbirdan ko'zlangan maqsad shu bo'ldiki, ustoz-shogird an'analarni yanada rivojlantirish, zamonaviy milliy rangtasvir, uning ijodkorlari ijodida milliy an'analarga tayangan holda yangi uslub va vositalarni shakllantirishdir. Shu ma'noda, talaba yoshlarga



ustoz ijodkor Alisher Mirzaev ijodi orqali Zamonaviy milliy rangtasvir muammolari va istiqbollari borasida tushunchalar berildi. Tadbir so'ngida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

Uning manzaraga oid asarlari chet ellarda ham namoyish qilib kelinmoqda. A. Mirzaevning ijod namunalaridan “Anor daraxti”, “Tog daryosi sohilida”, “Shahar manzarasi”, “Boloxonada” qishloq manzarasi ko'rinishlari kabi asarlardir. Uning “Yangi va eski Toshkent” turkumidagi asarlarida qadim va navqiron shaharning ko'rinishi aks etgan. Unda Toshkentning ko'hna Eski shahar bilan zamonaviy binolar aralashib ketgan qismi - Chorsu bozori ko'rinishi tasvirlangan. Rassom shaharning tinimsiz harakatdagi hayotidan bir lahzalik holatni kartinaga muhrlab qo'ygan. A.Mirzaevning bu asari ekspressiv-ramziy tarzda yaratilgan kartinalardan hisoblanadi.

## **B. Jalolov- O'zbekiston xalq rassomi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotining sovrindori**

Bahodir Jalolov – O'zbekiston xalq rassomi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotining sovrindori, zamonaviy rangtasvir san'ati rivojiga hissa qo'shib kelayotgan talantli rassomlardan biridir.

Bahodir Jalolov 1948 yil 27 mayda Toshkent shahrida tavallud topgan. 1968 yili P. P. Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtini tugatgan. 1974 yilda esa I.E. Repin nomidagi Sankt-Peterburg rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik institutining bezatish monumental fakultetini tamomlaydi. Yoshlik yillarida portret san'atining ustasi Abdulhaq Abdullaevdan ta'lim oladi. Rassom ijodiy faoliyatining dastlabki namunalarida milliy his-tuygular turli xil ranglarda o'z ifodasini topadi. B. Jalolov tasviriy san'at borasidagi tahsilni davom ettirib keyinchalik Chingiz Ahmarov, Ro'zi Choriev, Milnikov, Korolyovlardan tasviriy san'at sirlarini o'rgandi. Shu sababli ham u yaratgan portretlarda yuksak mahorat ko'zga aniq tashlanib turadi. Uning ijodidagi tuygular uygunligi tomoshabinni o'ziga mahliyo etib qo'yadi. Xususan, «Raqsning tugilishi» kompozitsiyasi o'zbek raqqosalarini ulug'labgina qolmasdan, ularga bo'lgan samimiy hurmat va muhabbatni namoyon qilganini ko'ramiz.

Bahodir Jalolov portret san'atida ko'p yutuqlarga erishdi. Uning to'laqonli asarlarida o'zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o'z ifodasini topgan. Bu o'rinda ayniqsa akademik rassom O'rol Tansiqboev, buyuk olim, akademik Vohid Zohidov, san'atning mashhur dargalari Komil Yormatov, Malik Qayumov, Muhiddin Rahimov, Hamro Rahimova, Akrom Toshkanboev, Damir Ro'ziboev kabi ulug'lar siymosi so'zimizga misoldir. Rassom inson shaxsini doimo o'rganishga, uni har tomonlama his qilishga intiladi. Darhaqiqat, yuqorida ko'rganimizdek Bahodir Jalolov ijodiy faoliyatining asosiy ko'lami insonlar obraziga, ya'ni portretlar yaratishga qaratilgan. Tasviriy san'atda u kishi o'z rangin olamini yangidan yangi jilolar bilan tobora boyitib kelmoqda.

Bahodir Jalolov erishgan etuklikning yana bir jihati shundaki, u Sharq va Garb an'analarini o'zlashtirib, ana shu an'analardagi mushtaraklikni topib, uni yuzaga chiqarishga muvaffaq bo'la olgan rassomdir. Ana shuning uchun ham xorijiy davlatlarning san'at ixlosmandlari e'tiboriga muyassar bo'lgan. Rassom o'zining monumental pannolari bilan dunyoning ilgor davlatlarida hashamatli saroy va binolarni bezatib kelmoqda. Rassom ijodiga taniqli olim Tilab Mahmudov baho berib shunday deydi: «Bahodir uchun inson va insoniyat tarixi jumboq edi. U bu jumboqni echishga, o'z xalqi tarixini bashariyat tarixi bilan hamohang nuqtalarini topishga harakat qiladi». Darhaqiqat, rassom keng tafakkurli ijodkor sifatida odam, olam, koinot sirlarini o'rganishga intiladi.

Bahodir Jalolov (1948.27.5, Toshkent) — rangtasvir ustasi, O'zbekiston xalq rassomi (1992), O'zbekiston (1997) va Qirg'iziston (1998), I. Repin nomidagi rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik in-tini tugatgan (1974). Toshkent teatr va rassomlik san'ati in-tida o'qituvchi (1974—80); 1997 y.dan Milliy rassomlik va dizayn in-tida mahobatli rangtasvir ustaxonasi rahbari, prof. (2000). O'zbekiston rassomlari uyushmasi boshqaruvi raisi (1987—92). Ijodini portretlar yaratish b-n boshlagan.

Portretlarida kishilarning kasbi haqida tasavvur beruvchi holatlar aks ettirilgan, ijodiy mehnat jarayoni, chuqur psixologik holat mahorat b-n ko'rsatilgan («Me'mor», 1972; «Masxaraboz Akrom Yusupov», 1974; «Avtoportret», 1975; «Kulol ayol. Xalq ustasi Hamro Rahimova», 1975; «Soniya va mangulik. O'rol Tansiqboev xotirasiga», 1977; «Porloqerta. Rassom Sh. Abdurashidov xotirasi», 1980; «Tiklash. Xalq ustasi Muhiddin Rahimov», 1980). 70-y. larning oxiri — 80-y.larning boshlaridan mahobatli rassomlik sohasida samarali ijod qiladi: Qarshi musiqali drama teatri binosiga, «Chimyon» sanatoriysi oshxonasi foyesiga (1981), Toshkentdagi Kinochilar uyiga (1982) ishlagan devoriy rasmlari rassomni betinim izlanayotgan, o'ziga xos uslub yaratgan rassom sifatida tanitdi. «Bahor» konstert zali foyesiga ishlangan «Raqsning tugilishi» (1982), Qashqadaryo viloyati Tallimarjon nasos stanstiyasi klubi devoriga (1983), Qo'qon teatri foyelariga

(1987), Tojikistonning Xo'jand sh.dagi maktab binosiga (1988), Belgiyaning Kortreyk sh.dagi «Kortreyk 200» (1990), Toshkentdagi Turkiston saroyiga («Umar Xayyom tushlari», 1993) va b.ga ishlangan devoriy rasmlar, manzaralar («Isfarada bahor», «Tog qishlogi. So'qmoq», «Eski Gurzuf ko'chasi» va b.), kitoblarga yaratilgan illyustratsiyalar (Navoiy, T. Tula, U. Nosir va b. asarlari), dastgoh kartinalari («Afg'oniston — 83», «Afgoniston tongi» va b.) muallifidir. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti lauriyati.

**Malik Nabiev- O'zbekiston halq rassomi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston badiiy akademiyasining akademigi.**

Nabiev Malik 1916 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan va 2008 yilda vafot etgan. Rangtasvirchi rassom, pedagog. 100-rasm. O'zbekiston badiiy akademiyasining akademigi, O'zbekiston halq rassomi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

Nabiev Malik tasviriy san'atning ilk saboqlarini rassom Baxrom Hamdamiydan o'rgangach, ustoz maslaxatiga ko'ra 1933 yilda rassomlik bilim yurtiga o'qishga kiradi. 1937 yilda bilim yurtini tugatganidan so'ng shu erda o'qituvchilik faoliyatini boshlaydi. 1962 yilda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogik instituti badiiy-grafika fakultetini tugatgan. O'sha yillarda uning san'at borasida mustaqil ijodiy faoliyati boshlangan edi. Rassom urushning og'ir yillarida qishloqlarni kezib, portretlar ishladi, fashistlarni qoralovchi plakatlar chizib, chaqiriqlar, shiorlar yozib, urush orqasidagi mehnat bilan g'alabani yaqinlashtirishga harakat qildi.

Rassom o'z faoliyati davomida tarixiy shaxslar portreti, tarixiy voqealarni tasvirlashga juda qiziqar edi.

Tarixiy shaxslar obrazini yaratish naqadar mushkulligiga qaramasdan ijodkor o'zining tinimsiz mehnati tufayli buyuk siymolar obrazini yuksak badiiy saviyada yarata oldi. Ular amir Temur, Beruniy, Bobur, Ibn Sino, Jomiy va Navoiy, Al Roziy, Al Xorazmiy kabi bir qancha yirik olim, shoir, davlat arboblarning obrazlaridir.

Ana shunday asarlardan bari 1962 yilda yaratilgan Zaxriddin Muhammad Bobur portretidir. Mazkur asarni yaratish maqsadida rassom ko'p yillar davomida izlanishlar olib bordi. U Bobur yashagan joylarda-Andijon, Samarqand, shaharlarida va Afg'oniston, Xindiston kabi shaharlarda bo'ldi. Bobur haqida yaratilgan mo'jaz rangtasvir asarlari bilan tanishdi.

Rassomning ko'p yillik tinimsiz mehnati natijasida yaratilgan Bobur portreti olqishlarga sazovor bo'ldi.

Beruniy tavalludiga 1000 yil to'lishi munosabati bilan 1973 yilda Beruniyning eng yaxshi portreti uchun e'lon qilingan tanlovda Malik Nabievning ishi birinchi mukofotni oldi. Bu portret YUNESKO ning "Kur'er" jurnali muqovasida va xorijiy mamlakatlarning ko'pgina jurnal va gazetalarida ham berildi. 101-rasm.

M.Nabiev ijodida 1994 yilda yaratilgan "Amir Temur portreti" asosiy o'rinni egallaydi. Bu asarda yozish istagi 1941 yilda soxibqiron go'ri ochilib uning kalla suyagi olingani hamda bu asosda Amir Temurning xaykalini rus xaykaltaroshi M.Gerasimov tomonidan ishlashga kirishilgan paytdan boshlangan edi deb eslaydi rassom. Sohibqironning bo suyagini tarix muzeyida o'z ko'zi bilan ko'rgan M.Nabiev uning portretini ishlashga kirishgan edi. 102-rasm.

Buyuk shaxsni portretini ishlash qanchalik ma'suliyatli va murakkab bo'lganligini bilgan rassom bunga ellik yildan ortiq vaqt sarfladi. Bu davrda u Xindiston, Eron, Turkiya, Angliya, Franstiya, Ispaniya kabi mamlakatlarning muzeylari va kutubxonalarida saqlanayotgan Amir Temur hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mo''jaz rangtasvir asarlarini u xaqda yaratilgan ko'plab adabiyotlarni o'rgandi.

Oxir oqibatda davlat arbobi, harbiy qo'mondan obrazini realistik tarzda zo'r maxorat bilan yaratishga muvaffaq bo'ldi.

1994 yilda eng yaxshi yaratilgan Amir Temur obrazi uchun e'lon qilingan tanlovdan M.Nabievning bu chuvrati bosh mukofatga sazovor bo'ldi.

Rassomning tarixiy janrda yaratilgan ayrim asarlarida ozodlik uchun bo'lgan halq qo'zg'olonlari mohiyati ochib beriladi. M.Nabiev avloddan-avlodga hikoya qilinib kelinayotgan tarixiy voqealarni astoydil o'rganib, tarix sirlarini jonli ranglarda tasvirlashga muvaffaq bo'lgan. Uning ana shunday asarlaridan biri Iskandar Zulqarnaynga qarshi ozodlik uchun kurash haqidagi "Spitamen qo'zg'oloni" suvratidir. Shu janrdagi yaratilgan asarlar qatoriga "Samarqandda hunarmandlar qo'zg'oloni", "Jizzax qo'zg'oloni" kabi ishlarni kiritish mumkin.

M.Nabiev na faqat rassom mohir pedagog, ustoz va etuk murabbiy hamdir. U 1960 yildan boshlab ko'p yillar davomida Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti (universitet)ning badiiy-grafika fakultetida kafedra mudiri va professor sifatida faoliyat ko'rsatib keldi.

Rassom maktab, bilim yurtlarining o'qituvchilari, talabalar uchun metodik ishlar yaratishda ham samarali mehnat qildi. Uning bu boradagi ishlarining natijasi kitob shaklida chop etilgan.

Ijodkorning sermaxsul ijodiy faoliyati xukumat tomonidan munosib taqdirlanib, unga "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni berilgan.

### **III. Atamalarning izohli lugati**

<b>Avtoportret</b>	Portret janrining ko'rinishlaridan biri bo'lib, rassomning o'zini tasvirlashiga aytiladi.
<b>Axromatik rang</b>	Oq, kulrang, qora ranglar bir-biridan yoruglik kuchlari bilan farqlanadi.
<b>Asosiy rang</b>	Tabiatda mavjud bo'lgan sariq, qizil va zangori ranglar.
<b>Amaliy grafika</b>	Grafika san'atining turlaridan biri. Turli xildagi yorliqlar, konvert yuzasiga ishlanadigan rasmlar, tabrik xati va telegrammalar, markalar shu turga mansubdir.
<b>Animalist</b>	(lotin "animal"– hayvon) hayvonlarni tasvirlovchi rassom yoki haykaltarosh.
<b>Applikatsiya</b>	Har xil rangli qogoz yoki mato parchalaridan soya tasvir (siluet), naqsh, gul va hokazolarni qirqib qogozga yoki maxsus pannoga yopishtirish.
<b>Asimmetriya</b>	Nomutanosiblik, biror buyum qismlari, bo'laklarining ma'lum bir nuqta, chiziq yoki tekislikka nisbatan bir-biriga o'xshamasligi, munosib kelmasligi.
<b>Afrodita</b>	Qadimgi yunon afsonalaridagi sevgi va go'zallik ma'budasi.
<b>Batalist</b>	Jang manzaralarini tasvirlovchi rassom.
<b>Venera</b>	Yunon va Rum afsonalarida muhabbat va go'zallik ma'budasi.



- Vitraj** (franst - deraza oynasi) rangli shisha, oyna bilan dekorativ xarakterdagi naqsh yoki tasvir ishlash. Odatda, rom derazalariga shunday tasvirlar ishlanib, ular o'zida nur o'tkazishi hisobiga turli ko'rinishlar hosil qiladi.
- Garmoniya** Grek. Garmoniya – bogliq bo'lish, munosiblik, muvofiqlik badiiy asar qismlarining mutanosibligi.
- Grizayl** (franst. grizaille, griz – kul rang) kul rang yordamida bir rangning har xil tuslari orqali ishlangan tasvir.
- Diptix** (grek, diptigos-ikki qatlangan) o'rta asrlar san'atida keng tarqalgan, ikki qismdan iborat relief va rangtasvirdan tuzilgan asar.
- Drapirovka** Fon uchun ishlatiladigan har xil rangli materiallar, gazlamalar.
- Janr** (franst.tur.ko'rinish). Tasviriy san'atda janr deyilganda, biror bir mavzuni o'zida aks ettiradigan san'at asarlari tushuniladi. Masalan, manzarada tabiatning turli ko'rinishlari aks ettiriladi. Alohida yoki odamlar guruhini aks ettiradigan rasmlar esa portret janridagi rasmlar deyiladi. Meva, gul, uy buyumlari va shunga o'xshash narsalarning tasvirini aks ettiruvchi rasmlar natyurmort janridagi rasmlar deyiladi va x.k.
- Interyer** Uyning ichki ko'rinishini tasvirlanishi.
- Iliq rang** Olovni, quyoshni eslatuvchi sariq, to'q sariq, sarhish, zargaldoq va qizil rang kabilar.

<b>Illyustratsiya</b>	Kitob, gazeta - jurnal grafikasining ko'rinishlaridan biri bo'lib, matn yoki hikoya bilan bogliq bo'lgan, shu hikoyadagi lavhaning ko'rinishini o'zida aks ettiradigan rasmlardir.
<b>Inkrustatsiya</b>	(lotin) har xil materiallarni birlashtirilib, san'at asari yaratish.
<b>Kapitel</b>	(lotin-kalla, bosh) ustunning yuqori qismi bezagi.
<b>Kompozitsiya</b>	(lotin kompozitio tuzilish, qurilish) badiiy asardagi obrazlar va badiiy vositalarning muayyan goyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi va ularning muvofiqligi.
<b>Kompanovka</b>	Chiziladigan buyum, manzara va boshqalarni qogoz yuzasiga mos qilib joylashtirish.
<b>Kolorit</b>	Yozilgan asarda mujassam ranglar majmuasi.
<b>Kontrast</b>	Qarama-qarshilik, zidma - zidlik, ranglarning o'zaro qarama-qarshiligi. Bir rangning yonida ikkinchi rangning yanada yorqinroq, keskinroq, ko'rinishi. Yashil rangning yonida qizil rang yanada jozibali, chiroyliroq ko'rinadi va hokazo.
<b>Kontur</b>	Tarh, tashqi ko'rinish. Narsaning qalamtasvirini ishlashda qo'llaniladigan zirh chiziq.
<b>Kopirovka</b>	Naqshlarning, qalamtasvirini qogoz va gazlamaga ko'chirishda ishlatiladigan qora, qizil, sariq, zangori tusdagi rangli qogozlar.

- Lok** Moybo'yoqlarda ishlangan tasvirlar uchun alohida lok qo'llaniladi. Shuningdek, loklar aerosol bankachalarida chiqarilib, ular ko'mir, pastel, sangina, retush kabi tasviriy vositalarda bajarilgan grafik ishlarning yuzasiga sepib mustahkamlanadi.
- Lessirovka** Rangtasvir texnikasi usullaridan biri. qurigan qalin qatlam yuzasiga yorqin yoki yarim yorqin ranglarning berilishi.
- Mozaika** Rang-barang shisha, toshchalar, yogoch, faner, charm qiyqimlaridan bir-biriga zich qilib yonma-yon yopishtirish yo'li bilan hosil qilingan rasm.
- Molbert** Qalamtasvir va rangtasvir ishlash uchun qo'llaniladigan moslama.
- Mazok** Surtma, mo'yqalamda keskin va uzib-uzib ishlash, bunda asosan mo'yqalamning karton yoki matoda qoldirgan o'ziga xos izlari.
- Nabroska** Xomaki ish, qoralama, o'ziga xos chiziq va chizgilar yordamida tez bajariladigan tarxli tasvir.
- Natyurmort** (franst. jonsiz tabiat) tasviriy san'at janri. Gul, meva, sabzavot, qushlar, uy – ro'zgor buyumlari, ayrim mehnat qurollari tasvirlanadi.
- Plakat** (lotin, e'lon, guvohnoma). Grafika san'atining turlaridan biri bo'lgan plakatda tasvir va yozuvlar yoki faqat yozuvlar o'zining badiiy ifodasi orqali davrning eng muhim voqealarini tomoshabinga etkazadi, uni kurashga da'vat etadi, ogoxlantiradi, tushun-tiradi.
- Plener** Ochiq kenglik.

<b>Rangtasvir</b>	Devorlarga ishlangan turli rasmlar, polotnolarga chizilgan surat, kino va teatr bezaklari. Bu san'atda rang muhim o'rinni egallaydi va uning o'ziga xos xususiyatli tomonlaridan birini tashkil qiladi. Grafika san'atida rang shunchaki yordamchi vosita vazifasini o'tasa, rangtasvirni esa rangsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Rassom rang orqali borliqni ifodali obrazlarda tasvirlaydi, makonning cheksizligi, undagi narsalarning rang-barangligini, hamda hajmini ko'rsatadi.
<b>Reproduksiya</b>	Tasviriy san'atga nisbatan olinadigan, haqiqiy badiiy asarning poligrafiya vositalari yordamida qayta hosil qilingan ko'rinishi.
<b>Restavrasiya</b>	(lotin, tiklash) zarar ko'rgan tasviriy badiiy asarlarning umrini uzaytirish va ilmiy metodlardan foydalanib, asl holiga qaytarish.
<b>Retush</b>	(franst. To'grilash) tasvirning aniqlangan kamchiliklarini to'grilash.
<b>Ritm</b>	Yaratilgan asar komponentlarining ohangdor, tekis yoki dinamik qaytarilishi.
<b>Syujet</b>	(franst. buyum, narsa, harakat).  Tasviriy san'atda tasvirlangan buyum yoki voqea tushuniladi. hayotiy voqea, lavha, harakat.
<b>Siyoh qalam</b>	Kichik mo'yqalam bilan naqsh tarxini bo'yoqda chizib chiqish.
<b>Sovuq ranglar</b>	Muz, qor, suvni eslatuvchi havo rang, zangori, ko'kish yashil, to'q binafsha kabi ranglar.

<b>Tasviriy san'at</b>	Odatda, mavjud borliqni ko'rinarli obrazlar, shakllar orqali fazoviy kenglikda, yuzada yoki tekislikda (masalan, qogoz yuzasida, devor satxida va x.k.) aks ettira oladigan san'atdir.
	Tasviriy san'at tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, unga grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik san'ati ham kiradi. Tasviriy san'atning hamma turlari bir-biriga juda yaqin va bir qator o'xshashliklari bor, lekin shu bilan birga, ulardan har birining o'ziga xos tasvirlash uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ularning har biri ishlatilish o'rni, aks ettiradigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab, bir qator tur va janrlarga bo'linadi.
<b>Etyud</b>	(franstuzcha "o'rganish") yirik asarlarni ishlash uchun bevosita naturadan, hayotdan ishlanadigan kichik lavha.
<b>Etyudnik</b>	Etyud ishlashga moslashtirilgan ko'chma dastgoh.
<b>Qo'shimcha ranglar</b>	qizil, sariq va zangori bo'yoqlarning aralashuvidan hosil bo'ladigan omuhta ranglar.
<b>Xolst</b>	Rangtasvir uchun maxsus tayyorlangan mato.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, rangtasvir va rang texnologiyalarini o'zlashtirishda biz avvalo kuzatuvchan va rangni xis qila oladigan darajaga erishish uchun xarakat qilishimiz zarur bo'ladi. Ma'lumki tasviriy san'atning barcha turlarida rang muhim rol o'ynaydi. Rang gammasi deganda tasvirlarni ishlash jarayonida qo'llanadigan tus va ranglarning o'zaro muvofiq kelishini tushinamiz. Bu xolatni quyidagi jonli misol bilan izoxlasak o'rinlidir, masalan, musiqa san'atidagi ovozlari malum notalar yordamida belgilanadi va foydalaniladi. Ular o'z xolicha aloxida-aloxida bir-biri bilan uyg'unlashtirilmay chalinsa ma'nosiz uzuq-yuluq ovozlardan iborat bo'lib qoladi. Agar ma'lum bandlikda va tartibda uyg'unlashtirib chalinsa, yoqimli bo'lib eshitiladi.

Ma'noli tasavvurlar zavq berish qudratiga ega bo'ladi. Ularning sifati ovozlari o'rtasidagi vaqt masofasi, ovozlari yo'g'on-ingichkaligiga ham bog'liq. Rangtasvirda ishlash jarayonida xam xuddi keltirgan misolimiz kabidir, ya'ni har bir rang va tusning o'z yorqinligi va to'q - ochligi mavjud. Ularni nechog'lik bir-biriga mosini topib, o'zaro muvofiq tarzda qo'llasak shunchalik tasvir sifatida aksini beradi, ma'no tashish quvvatiga ega bo'ladi. Agar bo'yoqlarni tasvir ob'ektiga zid holda birini juda yorqin, boshqasini nursiz qilib o'zaro bog'liqligiga moslamay ishlatsak, rangtasvir ma'nosiz va ta'sirsiz chiqib qoladi. Ranglarning yorqinlik kuchi va to'q-ochligi xuddi tabiatdagidek qilib olish va tasvirlashda qo'llash juda qiyin. Shu sababdan ham ular ochroq yoki to'qroq gammalarda tasvir ob'ektlariga mos tarzda, ma'lum nisbatlarda qilib olinadi. Mo'ljaldagi olingan gammaga moslab tasvirning eng to'q va eng och qismlari darajasi belgilab olinadi. Shunda ishlangan tasvirlar yaxlitlik, qiziqarlilik kasb etadi, ta'sirchan chiqadi. Har bir narsa va xodisa tasvir etilar ekan, uni xuddi aslidagidek qilib aks ettirish mumkin emas. Buni ko'pchilik san'at nazariyotchilari va rassomlar, amaliyotchilar doimo ta'kidlab keladilar. Zero, tabiatni tasvirlash undan olingan tasavvurning qay darajadiligiga bog'liq, muhimi tabiat ko'rinishi realligi tasavvurini obrazli tarzda ifoda etsa ishonarli bo'lsa shuning o'zi kifoya, o'zbek rassomlari ichida ham

rangga juda etiborli munosabatda bo‘ladigan, uning go‘zal uyg‘unligini ifodalab bera oladiganlari ko‘p. Bunday usta, maxorat egalari mo‘yqalam soxiblaridan M.Nabiev, R Axmedov, R.Choriev, B.Burmakin, B.Boboiev, J.Umarbekov, A.Mirzaev, A.Ikromjonov, M.Toshmurodov, A.Nuriddinov, A.Qozoqov. va boshqalarning nomlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ularning ko‘plab ajoyib asarlari fikrimizni tasdiqlab turibdi.

## V. Adabiyotlar ro'yxati.

1. O.K. Arixtin "Tasviriy san'at asoslari" 1967 yil.
2. B. Azimova "Natyurmort chizish va tasvirlash metodikasi" 1984 yil  
Toshkent., O'qituvchi.
3. G.M. Abduraxmonov "Tasviriy san'at kompozitsiyasi" 1996 yil Toshkent.
4. M. I. Zemskaya "Aleksandr Volokov Master granatovoy chayxani"  
Xudojnik 1975 yil.
5. V. Shoroxov "Osnovi kompozitsii" Moskva "Prosvesheniye" 1979 yil.
6. A. Egamberdiev "Stankovaya jivopis Uzbekistana" Gofur Gulom  
Toshkent 1989 yil.
7. A. R. Umarov "Abdulxaq Abdullaev" izd. Xudojnik 1971 yil.
8. M. Sokolova P. Benkov vospominaniyasi, perezpiski G. Gulyama  
Toshkent 1981 yil.
9. Abdullaev N.I. "San'at tarixi"- Toshkent, O'qituvchi, 1986 yil.
10. Abdullaev N.I. "San'at tarixi"- Toshkent, San'at, 2001 yil.
11. Azimova B.Z. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. Toshkent,  
O'qituvchi, 1984 yil.
12. Azimova B.Z, Rajabov R, Abdurasilov S.G. Tasviriy san'atga oid  
atamalarning zoxli lugati. Toshkent 1994 yil.
13. Barsh I.O. Naroski i zarisovki. M., 1970 yil.
14. Boymetov B. Qalamtasvr o'qitishning ilmiy asoslari. Metodik tavsiyalar.  
Toshkent 1995 yil.
15. Kuzin V.S. Nabroski i zarisovki. M., 1970 yil.



16. Kuzin V.S. Voprosi izobrazitel'nogo tvorchestva. M., 1971 yl.
17. Smirnov G. V. Izobrazitel'noye iskusstvo. M., Prosvesheniye, 1977 yil.
18. Terentev A. E. Izobrajenie jivotnix i ptis sredstvami risunka i voprosy. M., 1980 yil.
19. Shoroxov E.V. Osnovi kompozitsii. M., Prosvesheniye, 1976 yil.
20. Egamov X. Buyoqlar bilan ishlash. Toshkent. O'qituvchi 1981 yil.
21. Xasanov Raim Metodicheskiye osnovi xudojestvennogo obrazovaniya i vospitaniya v uzbekskoy shkole. Toshkent. Fan, 1990 yil.

# ILOVALAR



Ko'kaldosh madrassasi



Karimova Shaxnoza



Ko'kaldosh madrassasi



Ko'kaldosh madrassasi restavratsiyadan oldin





Ko'kaldosh madrassasi restavratsiyadan keyin



Ko'kaldosh madrassasi





Ko'kaldosh madrassasi



Ko'kaldosh madrassasi



Ko'kaldosh madrassasi





Ko'kaldosh madrassasi



Ko'kaldosh madrassasi




Ko'kaldosh madrassasi



Ko'kaldosh madrassasi





Ko'kaldosh madrassasi inter'yer





Ko'kaldosh madrassasi



Ko'kaldosh madrassasi





Karimova Shaxnozaning malakaviy bitiruv ishi